




VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 13-iyun
№24 (3138)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



Shukuh

To'lib ketasan-da, shunday chog'larda,
Vujudingga sig'may jo'shadi ruhing.
Baxt ufurib turgan yorug' yuzlardan
Ko'klarga tutashib ketar shukuhing.

Yashil maydon.
Jonin hovuchlab,
Bunda muxlislarning titrar yuragi.
Eng baland pardada, baland tovushda
Yolvorib Xudodan omad so'ragum.

Koptogingga qo'shib darvozabonni
Darvoza to'riga irg'itib yubor,
Ko'rsat, o'zbekona jaydari qonni.
Mana! Gol!
Ey shovvoz!
Yashavor!

Otingdan aylanay, Azizbek og'am,
Yelkangda Vatanning orini ko'tar.
Bular boshlanishi, oldinda, olg'a,
Dunyo maydonlari bizlarni kutar.

Oshir!
Imkon berma nafas olishga,
Oyog'i to'p ko'rmay yig'lasin raqib.
Bugun haqqing yo'qdir ortda qolishga,
Bugun osmon bizga bir qadar yaqin.

Yana gol! Yashavor!
Yashasin, Eldor!
Maydonni titratsin oyoq tovushing.
Yelkangda nomus bor,
Ortingda el bor,
Raqib o'sal bo'lsin, qoni uvushib.

Shiddati so'nmagan hali bu yurtning,
Bir eri ming yovni yenggan bahodir.
Yo'lingda uchrasa, nariroq turgin,
Jim qarab turmaydi Abduqodir.

Hisob-kitobimiz topmagay yakun,
Qo'shib beriladi bizlarga imkon.
Ba'zilar o'ylagan bu oyoq to'pin
Oyog'in tegdirmay urib qo'yar gol.

Zaxira jonlanar, otlanar Igor,
Ijobat aylaydi shoirning so'zin.
Yerga tushmasidan havoda koptok,
Qarshi darvozaga kirmoqda suzib.

Oh, qanday huzurli,
go'zal bu oqshom,
Yulduzlar tizilib turgan osmonni —
Unutib bo'lmaydi, do'stlar, hech qachon
G'animga g'ov bo'lgan darvozabonni.

Men esa she'rimga yasayman yakun,
Mushaklar, qarsaklar bo'lsin davomli.
Bu qadim diyorning bardoshin, kuchin,
Qudratin ko'rsating O'zbekistonning!

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar",
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Harbiy jang san'ati

TURONDA KECHGAN

Bu jang sohibqiron Amir Temur va To'xtamishxon qo'shinining Terek, usmonli Sulton Boyazid bilan Anqara jangidan ikki yarim asr oldin Jizzaxdagi Temir qapug' va Samarqand shahri oralig'ida sodir bo'lgandi. Bulung'ur suvi o'shanda ham voqealarning qoq markazida loyqalanib oqib yotardi. Jang nog'oralari gumburi, burg'ular sasi, qilichlar shaqiri, gurzilar zarbi, jon berayotgan, jon olayotgan jangchilar hayqirig'i, yalovlar pirqiragi tovushini hozir ham eshitsu bo'ladi... Bulung'ur shivirida. Bu savash tarixga buyuk saljuq sulton Sanjar va qoraxitoy Gurxon to'qnashuvi nomi bilan muhrlanib qolgan.

Ko'hna Vatan

Qadimiy Oks (*Amudaryo*), Yaksart (*Sirdaryo*) oralig'i va yon-berida mavjud bo'lgan qavmlar o'tmishi bilan bog'liq madaniy tarix orqali bemaol 7-8 mingyillar qa'riga tushsa bo'ladi. Izlagan bu o'lkadan bir qancha uzun mingyilliklarning eng qorong'i hududlarini ham yorita oladigan ulug' voqealarni topa oladi. Ular albatta bor.

Dunyoning turli joylariga tarqalib ketgan ko'pgina xalqlar, millatlar tarixiy ildizi million yillardan beri oqib yotgan shu ikki muqaddas daryodan suv ichgan, ular atrofida dunyoga kelgan Turon atalmish ko'hna va qutlug' yurt tuprog'idan tiriklik olgan. Bir necha ming chaqirim narida O'rta yer, Marmar, Qora dengiz sohillarini Vatan tutib qolgan Turkiya turklari ham shunday qardosh xalqlardan biridir. Hikoyamiz qahramoni va Bulung'urning ular tarixida o'chirib bo'lmaydigan voqeasi bor. Bor so'zlarimiz endi shu hodisani o'qirmanga yetkazishga xizmat qiladi.

Ko'chish

IX asrda o'g'uzlar Sirdaryo sohillarida ko'plab turkiy qavmlar orasida hayot kechirardi. Ularning qiniq deb atalgan urug'iga Tuqaq ismli jasur va oqil kishi rahbarlik qilardi. Kunlarning birida bu hududlar xalqlari

Yabg'usi (*hukmdori*) qo'shin to'plab, musulmonlar yashayotgan o'lkalarga yurishga qasd qiladi. Ammo Tuqaq bu tadbirni yoqlamaydi va Yabg'u bilan yovlashib qoladi. Tuqaqning Saljuq ismli o'g'li bor edi. Otasi vafot etganda u endigina 17 yoshni qoralagandi. U ham otasining yo'lini tutadi va Yabg'u bilan munosabati keskinlashadi.

Milodiy 935-yili qavm ulug'lari bilan maslahatlashib, chorvaga keng, o't-o'larga boy yaylov izlash bahonasida Sirdaryoning quyi tarafiga ko'chadi va xatardan uzoqlashadi. Bu joylar Xorazm davlatiga qarashli edi. Saljuq ishonchli ittifoqchi va xalqi uchun qulay joyga ega bo'lish niyatida Xorazm shohi bilan do'stona aloqa o'rnatadi, islom dinini qabul qiladi. Sirdaryo etagidagi Jand viloyati ularning ilk mustaqil yurtiga aylanadi. Manbalarda aytilishicha, Saljuq shu yerda vafot etadi. Uning avlodlari va qavmi ko'payib, Nur tog'i etaklarigacha yoyiladi.

XI ASR BOSHLARIDA ko'chishning yangi davri boshlanadi. Bu jarayon saljuqlar hayotiga mashhur oshiq sulton Mahmud G'aznaviy aralashuvi bilan tezlashib ketadi. U saljuqlarning qoraxoniylar ittifoqchisiga aylanishi va o'z saltanatiga xavf solishi mumkin bo'lgan xatarning oldini olish maqsadida ularni Xurosonga jo'natishga ahd qiladi.

Kunlarning birida Sulton Samarqandda ziyofat berayotgan paytda saljuqlar qavmi yetakchisi

Arslon ibn Saljuq uning huzuriga keladi va ular o'rtasida suhbat bo'lib o'tadi.

Sulton deydi:

– Dushman hujum qilib qolsa va yordaming kerak bo'lsa, qanday ko'mak bera olasan?

Arslon:

– Sadog'imni qavmimga yuborsam, 30 ming jangchi hozir bo'ladi, deb javob beradi.

– Ko'proq kerak bo'lsa-chi?

– Bitta o'qimni yuborsam, yana 10 ming askar keladi.

– Undan-da ko'proq zarur bo'lsa, nima qilasan?

– Yana bir o'qimni Balxankentga yuboraman, 100 minglik qo'shin safimizga qo'shiladi.

– Undan ham ko'proq, desam-chi?

– Bir o'qimni Turkistonga jo'natsam, 200 minglik lashkar ko'makka keladi.

Sulton Mahmud saltanatining shundaygina biqinida unga yovlashib qolishi mumkin bo'lgan qanday katta kuch borligini sezib qoladi va amir Arslonni bandi qiladi. Oxir-oqibat baribir sulton yuragi his qilgan shu katta kuch uning vorislarini tarix sahnasidan surib chiqaradi.

Turkiy qavmlarning yana bir mashhur tarmog'i Yaksart sohillarida, qadimgi Turon o'lkasida turli hodisalar bilan tarix sahnasiga kirib kelishi shu tariqa sodir bo'lgandi.

Qatavan

Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan mavze X asrlardayoq shu nom bilan mashhur edi. Ilk davrlarda Qatavandiza shaklida ko'proq uchraydi. Davrlar o'tgan sayin undan "diza" tushib qoladi. Mahmud Koshg'ariy nomdagi so'zning bu bo'lagi qadimgi turkiy tilga mansub ekanini ta'kidlaydi. Arabiy yozuvda u "دزید" (*diza*) shaklida yoziladi. So'z yumshoq "he" (*hoyu havvaz*) bilan yakunlanadi. Shu sababli ba'zi o'quvchilar uni "dizah" deb o'qiydi. Jizzax shahri nomining kelib chiqishi ham xuddi shu so'zga taqaladi. Bu so'z hozir turkiy og'zaki va yozma nutqda "tiza", "diza" shaklida qo'llanadi. Himoya devorlari bilan o'ralgan qal'a tuzilishiga ko'ra, kishi tizzasiga o'xshagani sababli qadimda uni shu so'z bilan atashgan.

Qatavandiza... Bu nom bizga kamida ming yildan oshiqroq masofa ortidagi himoya devori bilan o'ralgan qal'a yoki mustahkam qo'rg'ondan darak berayotgandi.

XII asr guvohi

Faxrli "Islom toji" nomi bilan dovrug taratgan Abdugarim as-Sam'oniyy XII asrning ikkinchi yarmida bu manzilda mehmon

bo'ladi. U yozadi:

"Qatavan Samarqanddan besh farsax masofada joylashgan katta qishloqdir. Jome masjid, minbar va shahidlar qabristoni bor. Samarqand ahli "Qatvan" deydi. Menimcha, "Qatavan" bo'lishi kerak. Ziyoratga borganimda ikki kecha shu qishloqda tunadim.

Abu Muhammad ibn Muhammad al-Qatavaniy shu qishloqdan, mashhur imom, mufassir, mufti va voiz edi. Juma namozidan kelayotganda tuyadan yiqilib bo'yni singan va ertasiga vafot etgan. Bu voqea hijriy 506-yili (1112–1113) bo'lgan".

XII ASRNING eng ishonchli guvohlaridan biri Abdugarim as-Sam'oniyy Qatavanda "shahidlar qabristoni" borligi va uni ko'rganini ta'kidlamog'ida. Samarqandga Jizzax tarafdan kelayotib, Temir qapug'dan o'tilganda Chandiqlar yo'li mana shu qabristondan boshlanadi. U qanday va qachon paydo bo'lgan?

Bulung'ur hududiga ham sharqdan xuddi shu joydan kirib borilgan.

Yoy o'qida soch qirish

Saljuqlarning tarix sahnasiga kirib kelishi va dunyoni to'ldirgan shon-shuhrati ikki daryo oralig'ida boshlangan edi. Ularning bu sahnadan chiqib ketishi ham shu yerda sodir bo'ldi. XII asrning ikkinchi choragida sharqdan Gurxon boshchiligida qoraxitoy qavmi Movarounnahrqa bostirib kiradi.

Ibn al-Asir Jazariy yozadi: "So'ngra ular Movarounnahrqa yurish boshladi. Xoqon Mahmud ibn Muhammad hijriy 531-yili ramazon oyida (1137-yil may-iyun) Xo'jand chegarasida ularga qarshi chiqdi. Jang bo'ldi. Xoqon Mahmud ibn Muhammad tor-mor qilindi va Samarqandga chekindi. Mag'lubiyat aholini sarosimaga solib qo'ydi, qo'rquv va xavotir kuchaydi. Ular kecha-kunduz biror falokat sodir bo'lishini kutishardi. Buxoro va Movarounnahrning boshqa shaharlarida ham vaziyat shunday edi.

Xoqon Mahmud yordam so'rab, sulton Sanjarga chopar jo'natdi. Musulmonlar duch kelgan balo-qazodan xabar berib, ularni himoya qilishga chaqirdi. Sanjar qo'shin to'pladi. Xuroson hokimlari, Sijiston, G'ur, G'azna, Mozandaron va boshqa viloyatlar hokimlari askarlari bilan uning qo'shiniga kelib qo'shildi. Yuz mingdan oshiq jangchi to'plandi. Olti oy bo'lajak to'qnashuvga jangovar tayyorgarlik ko'rildi. Sanjar turklarga qarshi otlandi. Hijriy 535-yili zulhijja oyida (1141-yil iyul) Movarounnahrqa kirib keldi. Mahmud ibn Muhammadxon qarluq turklaridan noroziligini bildirdi va Sanjar



ULUG' JANGLARDAN BIRI

ularga hujum qildi. Ular Gurxon as-Siniy boshchiligidagi ma'jusiylar himoyasiga qochib borishdi. Sanjar Samarqandda qarorgoh tikdi. Gurxon qarluq turklari orasiga tushib, ularni kechirishini tilab, unga maktub yo'lladi.

Sanjar xonning so'zlariga quloq tutmadi. Islomga kirmasa, jazolashini aytib, tahdid qildi. Askarlari "o'tkir tig'li o'qlari bilan soch olishi", qo'shinining ko'pligi, barcha jang qurollari bilan mukammal ta'minlanganini aytib qo'rqitishga urindi.

Sultonning bu maktubini vazir Tohir ibn Faxrulkul ibn Nizomulkul ma'qullamadi. U bunga e'tibor bermay, xatni jo'natdi.

Maktubni xonga o'qib berishdi. U elchining soqolini tutamlatib, qo'liga igna tutqazdi va u bilan soqolidan bir tolasini uzib olishini buyurdi. Elchi bu ishning uddasidan chiqmadi.

Xon: "Sen igna bilan soqolingning bir tolasini uzolmading, qay kimsa yoy o'qi bilan sochini qiradi", dedi. Gurxon jangga shaylandi. Qo'shinida turk, xitoy va boshqa qavmlar yig'ilgan edi".

Raqibini zarracha pisand qilmay, hurmatsizlik bilan yozilgan maktub Gurxonning g'ashiga tegib, g'azabini qo'zg'adi. U vaqtni cho'zib o'tirmay, tezda Samarqand sari yurish boshladi. Shunday bo'lishini kutgan sulton Sanjar ham Samarqanddan chiqib, Bulung'ur daryosi (*Buzmajan rustoqi*) atrofida qo'shinini jangga hozirladi. Sulton Abarikat (*bu paytda ko'proq Barkat deyishgan*) qal'asida to'xtab, ertangi jang rejasini tuzadi. U ancha xotirjam edi, g'alaba qozonishiga ishonayotgandi. Gurxon qo'shinini jangovar tartibga keltirib Qatavandizadan chiqib kelayotgandi.

Ular hijriy 536-yili safar oyining beshinchi kuni (*1141-yil 9-sentabr*) ikki toshqin daryo kabi Qatavan dashtida to'qnashdi.

Sulton Sanjar turgan joy

Sheroz qal'asi devorining shimoliy burjiga bordim. Oyog'im yerga chuqur botganday qimir etmay turibman. Bulung'ur xuddi shu yerda keskin qayrilib oqadi. Bu baland joyda Qatavan jangidan bir kun oldingi manzarani hozir ham tomosha qilsa bo'ladi. Sulton qal'aning xuddi shu burjida turib, dushman qarorgohi tomonni kuzatgan, reja tuzgan. Bu oddiy jang emasdi... U keyin buyuk tug'li hikoyalardan biriga aylangandi. Ovrupo uni necha asrlar hapriqib so'zlab yurgan. Hozirgacha so'zlashadi, tinglashadi.

Men axir... shu damda hikoyaning aynan o'zida, naq qaqshagan bag'rida turibman. Hatto so'zlarning barchasi askar kiyimida atrofimda zir yugurib yurishibdi.

Xonning birinchi halqasi

Muarrixlar aytishicha, Gurxon jangchilari sulton Sanjar qo'shinini chalg'itib, asosiy kuchlarini aylanib o'tishga muvaffaq bo'ladi. Qurshovda

qolgan ko'plab askarlar ayovsiz savashda halok bo'ladi. Bu ikki tarafning dastlabki to'qnashuvi edi. Voqea G'ubdinning sharqiy etaklarida hozirgi G'allaorol, Baxmal va Bulung'ur tumanlari chegaralari tutashgan joyda boshlanadi. Sulton qattiq zarbaga uchragan askarlarini yig'ib, qayta jangovar safga tizish uchun chekinadi. Gurxon qulay fursatni qo'ldan boy bermay, hujumni kuchaytiradi va raqibini surib borib, daryoga qisib qo'yadi. Ibn al-Asir uni Darg'am daryosi edi, deb yozadi. Aslida u Bulung'ur bo'lgan. Uning baland, tik qirg'oqlari va tez oqayotgan suvidan qurollangan jangchilar osongina o'ta olmasdi. Ayniqsa, hamma tarafdin dushman o'rab, qisib kelayotgan bo'lsa.

Bulung'ur suvidan bir amallab o'tib olgach, sulton qo'shini yana qayta saf tuzadi va jangovar tartib bilan ortga chekinishda davom etadi. Hal qiluvchi oxirgi savash Samarqand yaqinida sodir bo'ladi. Yana oldingi holat takrorlanadi. Omad sulton Sanjardan yuz o'girgandi.

Bu – raqib kuchi, imkoniyati, mahoratini bilmaslik, mensimaslik oqibati edi. Avvaliga shunday o'ylagandim. Biroq to'g'ri xulosaga kelish uchun jangni oxirigacha kuzatish va voqeani to'liqroq bilish kerak ekan.

Xonning ikkinchi halqasi

Ibn al-Asir janoblari sulton Sanjar va Gurxon jangi voqeasini juda qisqartirib bayon qilgan ekan. Bu boshqa manbalardan ma'lum bo'ldi. U hikoya qilishicha, jang Qatavan dashtida boshlanib, ancha uzoqda Darg'am sohilida yakunlanadi. Uning hikoyasida jangning Bulung'urda bo'lib o'tgan eng shiddatli qismi ko'rinmay qoladi.

Sulton dushmanga taslim bo'lishni aslo istamaydi. Samarqand yaqinida qo'shinni yana navbatdagi savashga hozirlaydi. Darg'am bo'yidagi jang oldingisidan ham og'ir bo'ladi. Bu to'qnashuvda sulton Sanjarning o'zi ham qurshovga tushib qoladi. Vaziyat nihoyatda qaltisligini ko'rgan Sijiston hokimi Abul Fazl sultonga tezroq o'rniga biror amirni qo'yib, o'zi maydonni tark etishini maslahat beradi. Sulton Sanjar maslahatga amal qiladi va o'rniga uning o'zini qoldirib, jang maydonini tashlab chiqadi.

Darg'am jangida Sijiston hokimi Abul Fazl, sultonning xotini Turkon xotun, amir Kumach va uning o'g'li amir Sunqur al-Aziz asir tushadi. Ko'p amirlar jangda mardlarcha halok bo'ladi. Ibn al-Asir Darg'am bo'yi o'n mingdan ortiq halok bo'lgan musulmon jangchilari va yaradorlarga to'lib ketganini yozadi.

Gurxonning buyrug'i

Aytishlaricha, sulton Sanjarning qurshovda qolganini ko'rgan yog'iy:

"Sulton qopqonda", deya Gurxonga xabar yetkazadi. Xon o'ylanib turadi-da: "Chiqarib yuboring, jang bilan qutulganday bo'lsin!" deb buyruq beradi. Sulton ketadigan tarafdin jangchilar siyraklashadi. U sanoqli askarlari bilan qurshov halqasini yorib o'tib, qutuladi. Izidan nomigagina ta'qib qilishadi. Xondan nega raqibini qo'yib yuborganini so'rashganda: "U sulton! Shunday ehtiromga munosib savashdi", deb javob beradi.

Sadriddin Ali Husayniy bu voqeani boshqacharoq hikoya qiladi. U yozadi: "Sulton Sanjar Balxga yuz tutib, Gurxonning yaqinidan o'tib borayotgandi. Boshqa yo'li yo'q edi. Gurxon Sanjarning ketayotganini bildi, uni o'tkarib yubordi va yonidagilarga dedi: "Chekinayotganning yo'lini to'sish uni jon achchig'idagi jangga majburlashdir. Hayotini boy berayotgan keyinini o'ylab o'tirmaydi. Jonini himoya qilib, zafar quchishi ham mumkin".

Muarrix Gurxonni ta'riflaydi: "Xushsurat edi, o'ziga qaradi, Xitoy ipigidan tayyorlangan kiyim kiyardi, yaqinlarining salobati bosardi, amirlariga viloyat bermasdi, ularga qimmatli tuhfa ulashib: "Viloyat bersam, zo'ravonga aylanadi, zulm qiladi", derdi. Amirlari askarlari yuz otliqdan oshmasdi, kuchayib o'ziga qarshi bosh ko'tarishlariga yo'l qo'ymasdi".

Keyingi ko'rgan manbalarimda Gurxon Samarqand yurishida sulton Sanjar qo'shinidan kamida ikki barobar katta kuch bilan kelgani, uni bu jangga Xorazmshoh Otsiz undaganini o'qidim.

Qatavan va Abarikat o'rtasida bo'lib o'tgan jang Sulton Sanjar qudratiga o'nglanmas talafot yetkazadi. Turon mamlakati, Oks va Yaksart bo'ylaridan boshlangan yana bir Buyuk hodisa uning o'zida shu tariqa yakun topdi. Qatavan hodisasi saljuqlarni ota yurtidan butunlay uzoqlashtirdi. G'allaorolning g'arbiy va Samarqand shahrining sharqiy tarafida undan "shahidlar qabristoni" deb atalgan ikkita katta chandiq qoldi.

Ovrupoga yetgan Sas

U Qatavanda boshlanib, Barkatdan o'tib, Darg'amda tugagan jang sadosi edi. Uni o'sha paytdayoq Ovrupo eshitdi, qo'shiq qilib kuyladi. Ma'nisiz urushlar holdan toydirgan salb yurishi ritsarlari xursand bo'ldi, davralarda avliyo Ionn Sharqda Gurxon qiyofasida paydo bo'lgani va yengilmas qudratli sulton Sanjarni butkul mag'lub etgani to'g'risida gurunlar avjiga ko'tarildi.

Bu voqealarni menga Sherozni hozirgacha qo'riqlab yotgan Bulung'ur hikoya qilib berayotgandi. Qulog'imdan ranjidim... Shu paytgacha Dunyo eshitgan, bugungacha turli o'lkalarda aylanib yurgan o'z O'tmishimning shonli sasini eshitmaganiga. Qanday odamman o'zi?

Abdusattor JUMANAZAR,
O'zR Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi



“TOSHGA TOSHDEK, QUMGA QUMDEK, MUZGA MUZDEK BO‘LAMIZ, AMMO SHAMOLDA TO‘ZG‘IB KETMAYMIZ”

Aka, men tog‘oldi hududda tug‘ildim. Ana shu joyda ona deb tilim chiqdi. Yoshligimda quyoshga qarab talpinardim-u, ammo uning qayerga berkinib olishini bilolmasdim. Uyimizning chap tomonidagi do‘nglik ortidan erta sahar bo‘zarib chiqardi va o‘ng tomondagi pastlik qirlar osha ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi. Shunda dunyo qishlog‘imizning so‘ngida tugasa kerak, deb o‘ylardim. Ha, o‘sha O‘zbekiston Qahramoni, shoir Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha”sidek. U ham o‘zi tashlangan ko‘lmakni butun umri davomida borliq shu bo‘lsa kerak, deya o‘ylagan-ku. O‘qigansiz-a shu she‘rni? Qisqasi, men tog‘ odami edim. Dunyoni ko‘rmagan, anglamagan va tushunmagan tog‘ odami.

So‘ng shaharga keldim – poytaxtga. Biroq uning shuvullab turgan shovqinida ado bo‘la boshladim. Quloqlarim o‘rganmagan-da, bunday talato‘pga. Odamsiz joylarni izlardim-u, biroq unday yerni sira ham topolmasdim. Ha, yovvoyi odam edim-da. Keyin qismat shu bo‘lsa kerak, deb o‘zimni aldashga, ko‘ndirishga o‘tdim. Qani endi, bu o‘lgur yurak aytganimni qilsa? Qilmaydi. U shunday yaraldi, ana shunday ketadi chog‘i. Ehtimol, siz ham mendek azobdadsiz? Aytmoqchimanki, ilk qoningiz to‘kilgan joyni qo‘msab yasharsiz? Vatan ichra Vataningizni. Boshingizni ko‘p qotirmay, maqsadga o‘taman. Yaqinda tog‘ga chiqdim – Mudofaa vazirligi Tog‘ tayyorgarligi o‘quv-mashqlar markaziga. Eh, bu dil shunday yayrab, quvnadiki, bolalardek shodlandim. Unutilgan xotiralar qayta jonlana boshladi. Maysalar, daraxtlar, qir-u adirlar. Ayniqsa, ko‘kka tutashib ketgan tog‘lar qalbga huzur baxsh etadi. Hammasi tanish-da. Go‘yo o‘zimni qadrton go‘shamga qaytgandek sezdim.

DARVOQE, biz borganda harbiy xizmatchilar mashg‘ulotlarga kirishgan ekan. Markaz boshlig‘i – mayor Atajon Atajonov baland tog‘larga ko‘tarilayotgan yigitlarga hamrohlik qilishga taklif etdi. Darrov ko‘ndik. Chunki ular chin mutaxassis. Shu yerni makon tutgan. Tajribalari qoyalarda oshgan. Bilim egallagan, asosiysi ustoz ko‘rgan. Jamoadoshlar – leytenant Sayyod Qurbonov va kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Doston Eshmamatov bilan birgalikda ularga qo‘shilib yo‘lga tushdik. Yurishimiz davomida har kim o‘zicha zavq oldi. Kimdir ilhom parilari bilan pichirlashdi, tabiatga murojaat etdi. Kimdir esa uning sokinligini hayrat

ila kuzatdi. Kamina bo‘lsa, bolalik xotiralarimning o‘tkir sharobidan miriqib “simirgancha” chanqog‘imni bosib ketaverdim.

Chamasi 5 kilometrli masofani ortda qoldirdik. Dara yoqalab – tepaga qarab ketyapmiz. Moviy gumbazda quyosh osilib turibdi. Tandirda qizarib pishgan nondek. Ha, onam pishirgan o‘sha nondek. Harbiy xizmatchilar bizdan ancha oldinda. Ko‘p o‘tmay, ular uzoqlashib, ko‘rinmay ketdi.

– Yo‘lga tushgan kishi qaytishni emas, yetib borishning hisobini oladi, – dedi mayor. U o‘rta bo‘yli, qorachadan kelgan. Ko‘p yillardan buyon tog‘ tayyorgarligi bo‘yicha yurt o‘g‘lonlariga saboq berib kelmoqda. Shijoatli. Ilmga chanqoq. Kitob o‘qishni juda ham yoqtiradi. Ha, u bilan azaldan beri tanishmiz.

– Kishi istasa, u zabt etolmaydigan to‘siqning o‘zi yo‘q, – dedi mayor Atajonov so‘zida davom etib. – Yil davomida markazdagi kurslardan o‘tgani kelgan harbiy xizmatchilarga ana shu fikrni singdirishga harakat qilamiz. Albatta, natijasini ham ko‘ryapmiz. Tayyorlov kurslarimizni muvaffaqiyatli tugatgan hamkasblarimiz yutuqlar ortidan yutuqlarga erishyapti. Bu, albatta, mehnatlarimizning mevasi ekanidan darak beradi.

– Xohish bo‘lsa, yetarli deng, – dedim xira ovozd.

U boshini silkib, indamay ketaverdi. Negadir jiddiy tortib olgandi. O‘rtaga cho‘kkan og‘ir sukunat chamasi bir kilometr yurganimizcha davom etdi.

– Bu yo‘lning adog‘i yo‘qqa o‘xshaydi, – dedi leytenant Sayyod Qurbonov norozi ohangda. – Shu yerlarda o‘sha vazifalarni bajarsa bo‘lmasmidi, harbiy xizmatchilar? U qo‘li bilan ro‘paramizdagi qoyalarni

ko‘rsatdi. Shunda Atajon aka kulimsiradi. Ammo uning lablarida kulgidan ko‘ra, qahr ko‘proq aks etardi.

– Toliqingizmi? – dedi mayor chap tizzasiga suyangancha Sayyodga qarab.

– Yigitlarga aytsangiz, mashg‘ulotlarni boshlasa ham bo‘ladi, – dedi Doston irshayib. – Chunki shu joydan ham ularning harakatini tasvirga olishim mumkin. Ishonmasangiz, mana qarang, – u o‘ng qo‘liga ushlab olgan kamerani havoga ko‘tarib, bizga ko‘rsatdi.

– Mashaqqatni his qilish kerak, – dedi Atajonov.

Birinchi o‘quv joyiga yetib keldik. Ustimdagi kiyimim jiqqa terga botgandi. Tez-tez nafas olaman. Ko‘zlarim oldi xira tortgan. Oyoqlarim o‘zimga bo‘ysunmay qoldi. Tepadagi qoyaga qarayman: u xotirjam borliqqa qarab, hammamizni kuzatib turardi.

VATAN HIMOYACHILARI SAF TORTGAN. Yelkalarida yo‘lxalta, qurol-aslahalar, xullas tog‘ga ko‘tarilish uchun zarur bo‘lgan anjomlar. Ko‘zlaridan o‘t chaqnaydi. Hamma jiddiy tortib olgan:

go‘yo birozdan so‘ng dushmanga hamla qilishga tayyor soqchidek. Tosh ustida o‘tirib, ularga qarar ekanman, hamon o‘zimni o‘zim yenga olmayotganimni, nafasim rostanmaganini his etaman.

– Buncha xom bo‘lmasam, a, – deyman pichirlab.

Aytgancha, bu yerda dushman kim o‘zi? Xayolimdan o‘tgan o‘ydan titrab ketaman. Tanamga ilon zahri kirgandek dastlab yaxlaydi, so‘ng qontomirlarimdan o‘tmay, tiqilib qoladi. Qo‘l-oyog‘im uvushganini sezaman. Mana endi azobli og‘riq boshlandi. A‘zolarimni kimdir arralayapti. Komandirning jangovar ovozdin hushimga keldim.

– Bugun bu yerda yagona dushmaningiz – o‘zingiz, – dedi u jiddiy qadam tashlab. – Agar qoyaga munosib raqib bo‘la olmasangiz, u sizga qarshilik qiladi. Ichingizdagi o‘zingizni yenga olsangizgina, zafar darvozalari ochila boshlaydi. Intiling, izlang va ortga qaytmang! Yo‘lning boshida turib, oxiri haqida qayg‘urmag‘!

Mayor Atajonov menga qarab qo‘ydi. Nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, ammo aytmadi. Nazarimda ayadi. Keyin safdagilarga qarab, so‘zida davom etdi:

– Vatanning qoyalari qayalariga dushmanning qadami tegsa, o‘sha kuni tirik bo‘lsangiz, unda o‘zingizga la‘natlar ayting, – dedi u. Katta ko‘zlarini biroz qisib, o‘ng qo‘lini musht qilib olgandi.

O‘QUVLAR BOSHLANDI.

Guruh ikkiga bo‘linib, ishga kirishdi. Arqon daraning narigi tomonidagi archaga mahkam tugildi. Shundan so‘ng yigitlar birma-bir unga osilib, o‘ta boshladi.

Operatorimiz tez-tez qadam tashlab, soy bo‘yidagi toshga chiqdi-da, jarayonni tasvirga olishni boshladi.

– Vaqt hamisha qadrlil, a? – dedi kichik serjant Husniddin Xiziraliyev yelka osha qaragancha. So‘ng o‘zining savoliga o‘zi javob berdi. – Biz uchun soniyalar juda muhim. Ustozlar aytganidek, toshga toshdek, qumga qumdek, muzga muzdek bo‘lamiz. Ammo shamolda to‘zg‘ib ketmaymiz.

– Yaxshi gap bo‘ldi, – dedim shalpayib. – Ustozlar shogirdlarni yo‘lga solish uchun yaratilar ekan-da, a?

Ikkimiz ham jim qoldik. Negadir maktabdagi ustozimni esladim. U 40 yoshida qirgildi – dunyodan o‘tdi. Kasal bo‘lib yotib qolganida



sinfodoshlar bilan ko'rgani borgandik. Ko'z qorachiqdalar parda olgan, rangi ham ko'kargan. Qantomirlari bo'rtib chiqqan. Nafas olishi kalta va tez-tez.

– Dunyoning oxirini topish ishq bilan hali ham yashayapsanmi? – dedi u kulimsirab.

– Unutibman, – dedim ko'zimni undan olib qochib.

– Yo'lga tushgan yo'lovchi maqsadidan voz kechsa, yashashdan ma'no qolarmidi? – Ustozimning yuzi jiddiy ko'rinish oldi. – O'zingni unutma!

Bu gurungga ham ancha bo'ldi. Vaqt topib, albatta, uni ham so'zlab berarman. Chunki bu boshqa hikoya.

Aka, men hammasini tez unutgan odamman. Aytganingizdek, balki hayot bunga majbur qilgandir? Daryodagi toshdek toshqinlarga chidamli edim-u, ammo bugun suv yuzidagi ko'pikka aylanganman. Endilikda oqim yo'lida osilib turgan har bir daraxt shoxi borki, savalab, parcha-parcha qilib tashlaydi. Keyin uzoq vaqt ruhimni topolmay, o'zimni izlab sargardon bo'laman. Ehtimol, siz ham boshqa maqsadlarni ko'zlab ostona hatlagansiz-u, biroq hozir o'zga yo'ldan yurishga majbur bo'lgandirsiz? Ha, mendek-da.

AYTGANCHA, dengiz sathidan qariyb 3 000 metr balandlikda edik. Nafas olishimiz borgan sari og'irlashadi. Havodagi kislorod

tepada kamayib ketar ekan-da. Xullas, miyamda o'rmalagan o'ylarni tartibga keltirib borayotgandim.

“Tosh”, degan ovozdin o'zimga keldim. Bilsangiz kerak, tog'da harakatlanayotganda eng muhim qoidalardan biri oldindagi yo'lovchi toshni dumalaganini ko'rsa, orqadagilarni ogohlantirish uchun, albatta “tosh”, deydi. Shunda o'zingizni xavfsizroq joyga olish uchun kam bo'lsa-da, imkon tug'iladi. To'g'ri aytasiz, balki bu hayotning sizga bergan tuhfasidir.

– Bobom yoshligimda ko'p bor, toshdek bo'l, bolam, derdi, – dedi kichik serjant Alisher Rajabov. – O'sha kezlari bu gapning mag'zini chaqmagani ekanman. Keyinchalik angladim. Tosh parchalansa-da, sizga taslim bo'lmaydi. Agar irodangiz shunday bo'lsa bormi, uncha-buncha qiyinchilik oldida bukilmaysiz.

U yonboshidan kattaroq toshni oldi-da, pastga qarab shaxt bilan uloqtirib yubordi. Otilgan tosh havoda bir muddat aylanib uchib dara yoqasidagi archalar shoxiga urilib, yerga tushdi. Keyin ilondek sudralib, maysalar orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Endi u qaqragan chaqirda emas, yashillik bag'rida qolgandi.

150 METR KELADIGAN QOYADAN ARQON TASHLANDI.

So'ng harbiy xizmatchilar juft-juft bo'lib pastga – bizning oldimizga tushib kelaverdi. Qurollari yelkalarida osilib turibdi.

– Qo'rquv – qisqa olingan nafasga o'xshaydi, – dedi III darajali serjant Jamshid Hayitmurodov.

– U o'pkangizni bir to'ldiradi-da, tez sizni tark etadi. Faqat parvo qilmasangizgina shunday bo'ladi.

Aksincha bo'lsa, borlig'ingiz uniki – qo'rquvning asiriga aylanasiz. Ba'zida inson toliqadi.

O'shanda yuzaga chiqadi. Bas, deydi. Miyaga shunaqangi fikrlarni soladiki, ularning oxiri yo'q.

Shunda to'xtasangiz, o'z-o'zingizni unutsangiz, alaloqibat, qo'rquq o'laroq hayot kechirasiz. Xuddi o'z ahlidan cho'chigan shaqaldek.

– Hayot yiqitadi, ammo siz qayta turishingiz kerak, – dedi chap tomondan yurib kelgan Atajon aka.

– Yigitlarning harakatidan zavq olyapsizmi?

– Yaxshi shogirdlar ustozning kim ekanini amalda ko'rsatadi, – dedim jilmayib. – Mahoratlar matonat sohiblari tomonidan oshirilsa, o'rganuvchi yanada sayqallanadi.

– Ta'limning tarbiyaga bo'lgan ta'siri bu.

– Yetmish yil o'chiq bo'lgan miya,

kerak bo'lsa, yetti soniyada borliqni anglaydi deng, – dedim beparvo. – Faqat zarurat bo'lishi kerak.

Oxirgi gapim juda past va jonsiz chiqdi. Hatto o'zim ham nima deganimni eshitmadim.

Kun bo'yi mashg'ulotlarda ishtirok etdik. Toliqish haddan tashqari kuchaydi. Lablarim qurib, ko'zlarim kattarib qoldi. Tanam bir qop tuproqqa aylanib qolgandek edi. Chetroqqa o'tib, ovozim boricha baqirdim: shu orqali charchoqni tanamdan, qo'rquvni o'pkamdan haydamoqchi bo'ldim-da. Ovozim qoyalarga urilib, ortga qaytdi-da, so'la boshlagan yuzimga shunaqangi shapaloq tortib yubordiki, uning zarbidan oyog'im osmondan bo'lib qolishiga bir baxya qoldi. Oyog'im ostidan yumalagan tosh asta nariroqdagi xarsangning yonidan joy oldi. Bildimki, u cho'qqisini tark etgisi kelmadi. Ana shunda azaliy haqiqatni anglagandek bo'ldim, aka. Ha, topdim. Mening qolipim allaqachon joyidan ko'chibdi. Endi u qaytadan loy bo'lmaguncha, shakllanmaydi. O'zligini topmaydi. Adashgan. U ma'shuqasini izlab, Majnundek sahro kezhishga mahkum. Aytganicha, sizda-chi? O'zi umuman, qolipingiz bormidi?

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



“Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanloviga

“TURKISTON ROSSIYA VA XITOIY ORALIG’IDA” JADID MA’RIFATPARVARLIGI DAVRIGA XOS MUHIM MANBA SIFATIDA

O‘zbekiston mustaqilligi tarixshunosligimizda ko‘plab yangi ilmiy yo‘nalishlar ochilishiga, xususan Turkiston xalqlarining ozodlik va istiqloq yo‘lida olib borgan kurashlarini xolisona o‘rganishga keng imkoniyat yaratdi. Ilgari siyosiy mafkura ta’sirida soxtalashtirilgan yoki butunlay e’tibordan chetda qolgan tarixiy haqiqatlar mustaqillik davrida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, Turkiston hududida XX asr boshlarida ro‘y bergan mustaqillik harakatlari, milliy davlatchilik tashabbuslari, sovet istilosiga qarshi ko‘tarilgan qurolli va mafkuraviy qarshiliklar bugun yangicha yondashuv asosida tadqiq qilinmoqda.

Mazkur jarayonda xorijdagi o‘zbek va turkiy muhojir ziyolilarning ishlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular orasida Boymirza Hayitning “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida” nomli asari o‘zining keng qamrovli, arxiv manbalariga tayangan tahliliy mazmuni bilan alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar Markaziy Osiyo tarixining muhim bir bosqichini – XVII asrdan to XX asr oxirigacha bo‘lgan davrni, ya’ni ikki yirik imperiya – Rossiya va Xitoyning Turkistonga nisbatan olib borgan bosqin siyosati, bu bosqinchilikka qarshi Turkiston xalqlarining milliy mujodala harakatlarini chuqur yoritib bergan.

Turkiston xalqlarining istiqloq uchun kurashlari tarixini o‘rganish vazifasi milliy tarixshunosligimizda faqat O‘zbekiston mustaqilligi sharoitidagina kun tartibiga chiqdi. Bu esa tarixning ilgari ochiq qolgan yoki ma’lum siyosiy sabablarga ko‘ra buzib ko‘rsatilgan sahifalarini qayta tiklash, ajdodlarimizning erk va Vatan ozodligi uchun olib borgan kurashlari haqidagi haqiqiy ma’lumotlarni o‘rganish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgungacha amalda bo‘lgan totalitar tuzum sharoitida “Vatan ozodligi”, “millat erki” kabi atamalar nafaqat tarixiy fanda, balki umumiy jamiyat tafakkuri uchun ham “begona” tushunchalar sifatida talqin qilingan. Sovet mafkurasi davrida Turkiston xalqlarining mustaqillik va ozodlik uchun olib borgan kurashlari haqidagi voqealarni o‘z ichiga olgan har qanday tarixiy manbaning yoyilishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Ayniqsa, 1918–1934-yillar oralig’ida Turkiston hududida zo‘ravonlik bilan o‘rnatilgan Sovet hokimiyatiga qarshi ko‘tarilgan milliy ozodlik harakatlarini aks ettiruvchi tarixiy manbalar butunlay yashirilgan yoki soxtalashtirilgan holda taqdim etilgan. Ushbu harakatlarning haqiqiy mohiyatini yashirish maqsadida sovet tarixchilari va mafkurachilari ularni “bosmachilik”, “qo‘zg‘olonchilik” deb haqoratli tasvirlarda ko‘rsatishga uringan. Lekin o‘z Vatanida yashirilgan, qoralanib kelgan tarixiy haqiqatga xorijdan oshkorlik yo‘li izlandi. XX asrning 1920-yillar oxiri – 1930-yillar boshlaridanoq xorijiy tarixshunoslikda, xususan turk tarixshunosligida Turkiston tarixining ko‘plab masalalari qatori ajdodlarimizning ozodlik uchun olib borgan kurashlari ham o‘zining haqqoniy talqinini ola boshladi. Chunki Turkistonda zo‘rlilik bilan o‘rnatilgan mustabid

tuzum quvg‘unlaridan jon saqlash maqsadida chet elga chiqib ketgan Mustafo Cho‘qay, Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, Alixonto‘ra Sog‘uniy, Yusuf Akjuro‘g‘li, Ali Bodomchi, Temiro‘g‘li kabi muhojirlar o‘z xotiralarini xorijda ilk bor aynan shu tillarda yozib, nashr ettirdi.

Turkiston fojialarining bevosita guvohlari bo‘lgan mualliflarning esdaliklari va aniq ko‘rsatmalari tarixshunoslikda 1918–1934-yillarda Turkistonda olib borilgan mustaqillik kurashlari haqida to‘g‘ri tasavvurlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Boymirza Hayitning mazkur kitobi aynan shu yo‘nalishda deyarli 40 yillik ilmiy izlanishlar, turli mamlakatlardagi arxiv va kutubxona manbalarini chuqur o‘rganish asosida yaratilgan bo‘lib, Vatan tarixshunosligi uchun muhim yangilik hisoblangan ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Eng e’tiborlisi, tadqiqotda o‘sha davr voqealarining bevosita guvohi, ishtirokchisi bo‘lgan zamonadoshlarning esdaliklaridan keng foydalangan. Zero muhojirlikdagi vatandoshlarning bu xotiralarini ular yashagan xorijiy mamlakatlar arxiv va kutubxonalarining mulkiga aylangan.

“Turkiston, Rossiya va Xitoy oralig’ida: XVII – XX asrlarda ruslar va xitoyliklarning istilolari davrida Turkiston milliy davlatlari va milliy mujodalalari tarixi” nomli asar birinchi bor nemis tilida 1971-yilda Amsterdam shahrida nashr etilgan. 1975-yilda esa turk tiliga tarjima qilinib, nashr qilingan. Ushbu asar Yevropa, Amerika va sobiq Sovet Ittifoqida tanqidlar hamda ko‘plab qarshiliklarga uchradi.

O‘z erki, dini va yeri uchun qurol ko‘targanlar “bosmachi” deb ataldi. Aslida esa “bosmachi” kim, “bosqinchi” kim ekani ushbu kitobda tarixiy hujjatlar asosida aniq ko‘rsatib berilgan.

Qisqacha aytganda, bu asar o‘z zamonasi uchun noyob manba hisoblanadi. Unda Markaziy Osiyoning Amir Temur va Temuriylar davridan tortib, sobiq Sovet Ittifoqining qulashigacha bo‘lgan muhim davr yoritilgan. Keltirilgan ma’lumotlar o‘nlab manbalarni o‘rganish, yillar davomida to‘plangan dalillar tahlili hamda jahon arxivlarida saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalarni tadqiq etish asosida kitobga jamlangan.

Kitob o‘n uch bo‘limdan iborat. **Ilk bo‘limda** birlashgan imperatorlik (*Temuriylar davlati*)dan so‘ng maydamayda davlatlarga bo‘linib ketgan Turkiston haqida fikr yuritilib, bu davrda yashagan xalqlar tarixi va

Sharqiy Turkistonning holati keng yoritilgan.

Ikkinchi bo‘limda Turkistonning mustaqil xonliklarga – Buxoro, Xiva va Qo‘qon (*hatto qisqa muddat yashagan Toshkent*) xonligiga bo‘linib ketishi haqida bayon qilinadi.

Uchinchi bo‘limda esa Rossiyaning Turkistonga yurishi, bu yurishlar doirasida ruslarning josuslik faoliyati, savdo aloqalari, siyosiy munosabatlari, istehkomlar qurilishi va Qozog‘iston hududlarini egallash jarayonlari haqida batafsil ma’lumotlar beriladi.

To‘rtinchi bo‘limda esa Turkiston uchun eng og‘ir davr – chor Rossiyasining to‘rt bosqichli bosqinchilik siyosati bayon etiladi. Bu yerda Buxoro amirligi va Xiva xonligi qanday qilib Rossiya protektoratiga aylantirilgani, Qo‘qon xonligining tugatilishi, Goktepa jangida turkmanlarning tor-mor qilinishi, Pomirga yurishlar hamda Rossiya va Angliya o‘rtasidagi chegara siyosati hujjatlar asosida ochib beriladi.

Beshinchi bo‘lim Xitoyning Sharqiy Turkistonni bosib olishi va bu hududda amalga oshirgan harakatlari hamda uyg‘ur xalqining ozodlik kurashlariga bag‘ishlangan.

Oltinchi bo‘limda esa Rossiya o‘rnatgan hokimiyatining butun Turkiston mintaqasida olib borgan mustamlakachilik siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Yettinchi bo‘limda esa oq podshohga qarshi ko‘tarilgan milliy ozodlik harakatlari tasvirlanadi. Bunga Sulton Kenesarining qo‘zg‘oloni, 1898-yildagi Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo‘zg‘oloni, 1916-yilda butun Turkistonda yuz bergan va podshoh hokimiyati asoslarini titratgan xalq harakatlari misol bo‘la oladi.

Sakkizinchi bo‘limdan boshlab esa eng muhim tarixiy bosqichlarga urg‘u beriladi. 1917-yil fevral va oktabr inqiloblari, jadidlar harakati, fevral inqilobidan keyin milliy davlat qurilishi yo‘lida tashlangan dastlabki qadamlar qanday qilib bolsheviklar tomonidan bostirilgani va oxir-oqibat kommunistik partiyaning hokimiyat tepasiga kelishi batafsil yoritilgan.

To‘qqizinchi bo‘lim 1917–1924-yillar oralig’idagi Turkiston milliy davlatlari va ularning taqdiri haqida. Unda Qo‘qondagi Turkiston Muxtoriyati, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSRS) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) kabi mustaqil respublikalarning shakllanishi va tugatilishi jarayonlari tahlil qilingan.

O‘ninchinchi bo‘lim eng og‘ir qo‘zg‘olon davrlardan biri – 1918–1934-yillarda

Turkistonda yuz bergan milliy ozodlik kurashlari, qo‘rboshilarning faoliyati va ularga qarshi Sovet hokimiyatining olib borgan harbiy harakatlariga bag‘ishlangan.

O‘n birinchi bo‘limda esa Sharqiy Turkistondagi ahvol tahlil qilinadi. Bu yerda Markaziy Osiyodagidan qolishmaydigan darajada og‘ir siyosiy va ijtimoiy sharoitlar yoritilib, 1934-yildan keyingi davrda xitoyliklar, ruslar va turkistonliklar o‘rtasida Sharqiy Turkistonni tuzish borasidagi siyosiy ziddiyatlar ochib berilgan.

O‘n ikkinchi bo‘lim 1924-yilda Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan “milliy hududiy chegaralanish” siyosatiga bag‘ishlangan. Unda Turkiston singari tarixan bir butun bo‘lgan yirik hududning beshta respublikaga bo‘lib yuborilishi tanqidiy tahlil qilinadi. Muallif bu jarayonni “milliy davlatlar”ni tashkil qilish emas, balki Turkistonni sun‘iy ravishda bo‘lib tashlash siyosati sifatida baholaydi. Sovetlar tomonidan tashkil etilgan respublikalar va ularning milliy emas, balki avtoritar xarakterli muallif tomonidan ishonchli manbalar asosida tahlil etilgan.

Kitobning so‘nggi – **o‘n uchinchi bo‘limida** Sovet davlatining qulashi hamda undan keyingi davrda mustaqillikka erishgan Turkiston haqida fikr yuritiladi. Muallif bu bo‘limda xalq ozodligi, milliy tiklanish va tarixiy adolatning qaror topish umidlarini bayon qiladi.

Umuman olganda, Boymirza Hayitning “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida” nomli asari haqida fikr yuritilgani, unisi o‘z zamonasining muhim ilmiy manbasi, g‘oyaviy va tarixiy haqiqatni tiklashga qaratilgan katta izlanish mahsuli sifatida baholash mumkin. Qiziq jihati, muallif xorijda yashagan bo‘lsa-da, tadqiqotida sovet va rus manbalaridan foydalangan hamda munozarali masalalarda iloji boricha xolis pozitsiyani egallashga harakat qilgan.

Mustaqillik tufayli ushbu asarni o‘zbek tilida nashr etish imkoniyati yuzaga keldi. Bugungi kunga kelib bu kitob nafaqat Turkiston tarixining fojiali sahifalari, balki ozodlikka intilgan xalqning qat’iyatli kurashi ifodasi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ushbu kitob o‘z vaqtida Turkiya “Kultür Vakfi” tomonidan tarixiy tadqiqotlar yo‘nalishida qo‘llab-quvvatlangan va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Cho‘lpon mukofotiga loyiq deb topilgan. Asarning o‘zbekcha-turkcha nashrini mustaqillikning ilk yillaridayoq chop etish uchun bir qator atoqli



ziyolilar – Baxtiyor Isabek-Ordabekli, Mirzo Kenjabek va “Ochun” jamiyati tashabbus ko'rsatgan edi. Hatto 1992-yilda G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda ushbu asarni 20 ming nusxada chop etishga tayyorgarlik ko'rilgan. Afsuski, ayrim tashkiliy va siyosiy sabablar tufayli bu kitob tarjima-ko'lyozma holatida qolib, faqat 2024-yilga kelibgina keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Boymirza Hayitning 32 yillik ilmiy izlanishlari mahsuli bo'lgan va O'zbekiston hamda Markaziy Osiyo tarixining muhim davrlariga oid bebaho ma'lumotlarni o'zida jamlagan “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida” nomli ko'lyozma 2024-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan chop etildi va qisqa fursatda ikki marta qayta nashr qilindi. Ushbu asarning ilmiy va tarixiy ahamiyatini o'z sohasining fidoyilari – marhum akademik Naim Karimov, tarixchilar Bahrom Irzayev va Qahramon Rajabov, yozuvchi Nurali Qobul kabi mutaxassislar yuqori baholagan.

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda dunyoning turli hududlarida tarqoq holda saqlanayotgan ko'plab ko'lyozmalar va tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ularning ilmiy muomalaga kiritilishi tarixshunoslik uchun nihoyatda muhimdir. Boymirza Hayitning mazkur asari Turkiston tarixini o'rganish yo'lida muhim bir poydevor bo'lishiga qaramay, hali bosib o'tilishi zarur bo'lgan yo'lining faqat boshlanishi hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan mustaqil turkiy davlatlar o'z tarixiy yo'lini baholash, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilish, zamon talablariga mos

ravishda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash ustida jiddiy ishlamoqda. Shu sabab turkiy davlatlarning madaniy hamkorligi mintaqaning taraqqiy etgan, barqaror va zamonaviy kelajagi uchun xizmat qiluvchi muhim strategik qadamlardan biridir.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida adabiyot, san'at, ilm-fan va madaniyat rivojiga salmoqli hissa qo'shgan shoirlar, faylasuflar va davlat arboblari xotirlash, ularning merosini ommalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi, tegishli topshiriqlar beriladi. Ushbu siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning amaliy ifodasi sifatida bir qator turkiy dunyo arboblarning yubiley tadbirlari nishonlandi. Jumladan: 2016-yili “Yusuf Xos Hojib yili” deya elon qilinib, tavalludining 1 000 yilligi keng nishonlangan edi; 2021-yilda Ozarbayjonda “Nizomiy Ganjaviy yili” deb e'lon qilinib, tavalludining 880 yilligi nishonlandi; O'zbekiston Prezidenti qarori asosida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi 2021-yilda keng miqyosda nishonlandi; Qozog'istonda Jambil Jabayev tavalludining 175 yilligi, Alixon Bokeyxon tavalludining 155 yilligi; Qirg'izistonda Husayn Karasayev tavalludining 120 yilligi, Turkiyada esa Yunus Emro yubileyi nishonlandi.

Bu davlatlarning til, din, madaniyat va tarixiy mushtarakligi ularning bitta tashkilot bayrog'i ostida birlashishga, o'zaro har tomonlama sheriklik aloqalarini mustahkamlashga tayyor ekanini ko'rsatmoqda. Tashkilot doirasida “Kengash” deb nomlangan sammitlarda tarixan ildizlari mushtarak bo'lgan xalqlarning

yaqinlashuvi, ijtimoiy-siyosiy masalalarda hamkorlikni kengaytirish borasida muhim natijalarga erishib borilmoqda. Bu xalqaro tashkilotning asosiy maqsadi – a'zo davlatlar o'rtasida azaliy qardoshlik rishtalarini mustahkamlash barobarida jahon va mintaqaviy muammolar yuzasidan siyosiy maslahatlashuvlarni kuchaytirish, iqtisodiy va texnik hamkorlikni rivojlantirish, ilm-fan, san'at hamda madaniyat sohalarida o'zaro aloqalarni mustahkamlash. Shu bilan birga turkiy tilli xalqlarning moddiy va ma'naviy merosini asrash va yanada rivojlantirish yo'lida hamkorlikni yuqori bosqichga olib chiqish ham tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Turkiy dunyo miqyosida ilmiy va madaniy hamkorlik so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Har bir sammit doirasida fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohalaridagi hamkorlikka oid qarorlarning muntazam qabul qilinishi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, tarixiy shaxslar merosini yodga olish va uni yangi avlodlarga yetkazish orqali turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasini tiklash yo'lida amalga oshirilayotgan tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boymirza Hayitning “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida” nomli asari nafaqat muallifning shaxsiy ilmiy izlanishlarining natijasi, balki Turkiston xalqlarining mustaqillikka intilgan tarixiy kurashining muhim hujjatli manbasi sifatida qadrlanadi. Asarda XVII asrdan boshlab XX asr o'rtalarigacha davom etgan mustamlakachilik bosqichlari, xalqaro siyosiy munosabatlar, ichki ijtimoiy-siyosiy harakatlar, ayniqsa

1918–1934-yillardagi milliy ozodlik harakatlari, Turkiston muhojir ziyolilarining faoliyati chuqur tahlil qilinadi.

Mazkur asarning alohida qimmat shundaki, muallif tarixiy voqealarni sovet mafkuraviy doirasidan xoli holda, xalqparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalari ruhida tahlil qilgan. Boymirza Hayit nafaqat ilmiy faktlarni taqdim etadi, balki ularni xalq taqdiri va erki bilan bog'laydi. Bu yondashuv, ayniqsa bugungi mustaqil O'zbekiston va boshqa turkiy davlatlar tarixiy xotirasini tiklash, tarixiy adolatni qaror toptirish yo'lida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Asar Turkiston tarixshunosligi uchun fundamental manba bo'lib, u jahon tarixiy tafakkurida Turkiston mavqeyini aniqlash, turkiy xalqlarning siyosiy, madaniy va ilmiy birdamligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichida bu kabi manbalarni tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Shu bois “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida” asari bugungi kunda jahon ilmiy jamoatchiligi e'tiboriga loyiq bo'lgan, turkiy tarixshunoslikdagi asosiy qadamlardan biri sifatida o'rganilishi va targ'ib qilinishi zarur.

Sanjar AXMEDOV,
Oriental universiteti dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori,
Dostonjon TOJIYEV,
Sharqshunoslik instituti
tayanch doktoranti,
kichik serjant
Abbosxon SAFARALIYEV



Sana

QO'MONDONLIK TANTANASI

Tantanalalar, qutlug' sanalar, bayramlar kishining kuchiga kuch, quvvatiga quvvat qo'shadi. Ayniqsa, ushbu kun sarhisob qilinganda quvonarli natijalar yuzaga chiqsa, ahil jamoaning mislsiz matonat va jasorat mahsuli bo'lgan muvaffaqiyatlari e'tirof etilsa, qalblarga cheksiz g'urur va iftixor baxsh etadi. Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik tashkil etilgan kunga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbir ana shunday e'tiroflarga mo'l bo'lgani bois ko'pchilik uchun unutilmas voqea bo'ldi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarda, xususan Mudofaa vazirligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qo'mondonlik shaxsiy tarkibi tomonidan barcha yo'nalishlar bo'yicha erishilgan yutuqlar haqida batafsil ma'lumotlar berdi. Maxsus tayyorlangan videorolik orqali qo'mondonlikning o'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishtirildi.

Shaxsiy tarkibning amaliy ko'nikmalarini doimiy oshirib borish maqsadida 6 ta dala maydoni, 200 dan ortiq o'quv maket va sinfi yangidan barpo etilib, foydalanishga topshirildi, shuningdek 23 ta harbiy qism panoramali kompyuter o'q otish trenajyori hamda 24 ta pnevmatik quroldan otish joyi bilan jihozlandi.

Jangovar va jismoniy tayyorgarlik yo'nalishida respublika va Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda qo'mondonlik harbiy xizmatchilari 200 dan ortiq sovrinli o'rinni qo'lga kiritdi. Shu o'rinda O'zbekiston faxri bo'lgan qo'mondonlik harbiy sportchilarining jahon arenalarida qo'lga kiritgan yutuqlari, olimpiadalarda sovrinli o'rnlarni egallaganini alohida e'tirof etish joiz.

Harbiy xizmatchilarning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar yo'nalishida ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yanada



yuksaltirish maqsadida fan, madaniyat va san'at arboblari, yozuvchi va shoirlar ishtirokida 17 mingga yaqin ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus ijrosini ta'minlash va o'quvchi-yoshlarni ona yurtga sadoqat hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida harbiy qismlarga 200 ga yaqin ta'lim muassasasi birlashtirilib, o'tgan davr mobaynida 7 mingdan ortiq harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Shuningdek, harbiy qism va birlashtirilgan maktablarda Amir Temur hamda Jaloliddin Manguberdining jasorati, vatanparvarligi va qahramonligini yorituvchi 120 dan ortiq tematik sinf hamda "Adiblar xiyoboni", "Ustozlar burchagi", "Harbiy tarix



muzeyi", "Yangi O'zbekiston muzeyi" va "Yoshlar xiyoboni" kabi ma'naviy maskanlar barpo etildi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini oshirish, Vatan taqdiriga daxldorlik ruhida kamol toptirish yo'lida ham muhim ishlar olib borilmoqda. Jumladan, qo'mondonlikka butun respublika bo'yicha 540 ta mahallada istiqomat qiluvchi 180 000 ga yaqin yosh birlashtirilgan bo'lib, ularning muammolarini o'rganish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli ishlar olib borilmoqda. Mahallalarda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga ijtimoiy yordamlar ko'rsatib kelinmoqda.

Shu kabi ezgu ishlar doirasida respublikamizning olis hududlarida joylashgan harbiy qismlarda "Sog'lom avlod uchun" shiori ostida 7 mingga yaqin harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolari chuqurlashtirilgan bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Respublika tibbiyot birlashtirilgan imtiyozli yo'llanmalar berildi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik

ruhida tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish va ularni Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan sug'orish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Harbiy qismlarda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar, ta'lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikda tashkil etilgan turli tadbirlar yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlab, ularning ma'naviy yetuk va intellektual rivojlangan avlod sifatida kamol topishiga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatimiz kelajagi, xalqimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Tantanali tadbir davomida xizmat burchini sidqidildan o'tab kelayotgan bir qator harbiy xizmatchilar navbatdagi harbiy unvon, faxriy yorliq hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Tadbirning badiiy qismida harbiy orkestr jamoasi hamda el suygan xonandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va sahna ko'rinishlari yig'ilganlarga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

TOQQQ matbuot xizmati

Askar bo'lar yigitning mardi

HAYOT MAKTABI

—
ARMIYA

Mustaqillikning ilk yillarida milliy armiyamiz shakllantirilib, harbiy xizmat turlari unga mos tarzda muvofiqlashtirildi. O'z kasbining ustalari bo'lmish ofitser va serjantlar shaxsiy tarkibini yetkazib beruvchi o'quv muassasalari tashkil etildi. Mamlakatimiz mudofaa doktrinasidan kelib chiqqan holda harbiy xizmatga layoqatli har bir yigitga Vatan oldida belgilangan burch – muddatli harbiy xizmatni o'tash imkoniyati berildi. Qisqa qilib aytganda, yillar davomida barchamizning ko'z o'ngimizda O'zbekiston armiyasining, Qurolli Kuchlarining bugungi kun shakl-shamoyili hozirgi ko'rinishda qad rostladi.

O'z-o'zidan hamma ham egniga harbiy libos kiyib, qalbida, shuurida, ongida haqiqiy Vatan himoyachisi bo'lish, madhiya sadolari ostida davlatimiz bayrog'i balandlarga ko'tarilgan holatda "Vatanga qasamyod" qilish onlarini his qilish imkoniyati mavjudmi, degan haqli savol tug'iladi. Albatta, bor. Muddatli harbiy xizmat, xalqimiz tili bilan aytadigan bo'lsak, Vatan oldidagi yigitlik burchini o'tash. Qaysidir jihatdan katta hayotga bosilgan yangi qadam. Toshkent harbiy okrugida muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun respublikamizning bir qator viloyatlaridan yoshlar chaqirilgan. Ular orasida IT, sport, chavandozlik sohasida o'ziga xos yutuqlarga erishgan yigitlarning borligi diqqatga sazovor.



Humoyun XOLMURODOV oilada kenja farzand. U yoshligidan harbiy xizmatga qiziqishi sabab, oliy ma'lumotli bo'lishiga qaramay, yigitlik burchini o'tashga qaror qildi. Maktabni a'lo baholarga bitirib, Toshkent davlat texnika universitetining "Elektr-energetika" yo'nalishi bo'yicha bakalavr diplomiga ega bo'lgan qahramonimiz hozirda Toshkent harbiy okrug harbiy qismlarining birida o'z yigitlik burchini o'tamoqda.

Oddiy askar Humoyun Xolmurodov Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida tug'ilgan. U 2024-yili avgust oyida 6,5 ballik daraja bilan ingliz tili bo'yicha IELTS sertifikatini qo'lga kiritgan. Chet tilni bilish darajasi bilan guruh komandirlariga ingliz tili fanini o'rganishga tayyorgarlik ko'rish va safdoshlariga shu fandan mashg'ulotlar olib borishda o'zining beminnat yordamini ayamasdan kelmoqda. Bilim darajasi, ma'lumoti, intizomi va mehnatsevarligi tufayli xizmatning ilk damlaridan tilga tushishga ulgurgan Humoyun bo'lim komandiri sifatida guruhiga yetakchilik qilishda va vzvod serjantlarining yaqin yordamchisiga aylanib ulgurgan.

Kelajakda hayotini harbiy soha bilan bog'lash niyatida. Buning uchun dastlab kontrakt bo'yicha xizmatni davom ettirib, keyinchalik ofitser bo'lishni reja qilgan. Otasi unda yoshligidan o'qishga, chet tilga qiziqish uyg'otish bilan birga dars tayyorlashda yaqindan yordam bergan. Shu sababli Humoyunda ingliz tilini o'rganishga bolalikdan ishtiyoq paydo bo'lgan. Tirishqoqligi sababli qo'shimcha to'garaklar va til o'rganish kurslariga muntazam qatnashib keldi. Yoshligida erishgan yutuqlarini davom ettirayotgan qahramonimizning IT sohasiga ham qiziqishi bor. O'zining bir qancha innovatsion g'oyalari bilan kelgusida harbiy soha nufuziga o'z hissasini qo'shish niyatida.



Bahodir SODIQOV chapani, qishloq farzandi. U ham Toshkent harbiy okrug harbiy qismi muddatli harbiy xizmatchisi. Bahodir yoshligidan otga mehr qo'ygan bo'lib, usiz hayotini tasavvur qila olmaydi. Bunga bolaligida Sodiq bobosi tomonidan tuhfa qilingan qizil rangli biya sabab bo'lgan. Azaldan Qashqadaryo ot va ot sporti, shuningdek milliy chavandozlikda dong taratgan polvonlari bilan mashhur. Bahodir ham ulardan biri bo'lish orzusida. Bobosi sovg'a qilgan o'sha ot sababmi, otga yanada mehri oshdi. 2015-yilda "Qashqa" biyasi dunyoga keltirgan qop-qora toychoqni "Kobra" deb atadi. Niyati – "Kobra" bilan birgalikda O'zbekiston ot sporti, milliy chavandozligimiz dong'ini dunyoga tanitish.

Bugungi kunga kelib Bahodirning tulpori Qashqadaryoda dong taratgan uloqchi otlar safida tilga olinadi. Shu o'rinda ot minish va ko'pkari musobaqasi shartlari va qonun-qoidalari, ko'nikmalarini

o'rgatgan yakkabog'lik ustoz Lochinbek akadan minnatdor ekanini qayta-qayta eslab turadi. Bahodir kim bilan suhbatlashmasin, sevimli oti va ustoz haqida to'lqinlanib gapirib beradi. Bundan u uchun ot va chavandozlik hayoti mazmuniga aylanganini sezish qiyin emas.



Bobur ERGASHEV

Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani mudofaa ishlari bo'limidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan. Qahramonimiz vzvoddagi muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan sport tadbirida 25 marotaba turnikda tortilib, may oyi yakuni bo'yicha eng ilg'or deya topildi. Yoshligidan sportga qiziqishi yuqori bo'lgan Bobur o'rta maktabda o'qib yurgan vaqtlarida bo'sh vaqtini ma'zmunli o'tkazish maqsadida akasi Temurbek bilan bolalar va o'smirlar sport maktabida dzyudo bilan shug'ullanib kelgan. Dastlab tuman, so'ngra viloyat bosqichida o'tkazilgan xotira turnirining saralash bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritgan. U ham kelgusida hayotini harbiy hayot bilan bog'lash niyatida.

Farrux URUNOV,
O'zJOKU 4-bosqich talabasi



Dolzarb mavzu

TARBIYADA TANAFFUS BO'LMAYDI

– Oddiy maktabda musiqa fanidan dars beradigan o'qituvchi musiqaga ixtisoslashtirilgan maktabimizga kelib, o'quvchilaridan birining qobiliyatini sinab ko'rishimizni astoydil iltimos qildi. Maslahatimizga ko'ra, qabul imtihonlariga o'sha o'quvchisini olib keldi. Bolaning ismini shartli ravishda Tohir deylik, imtihonlardan yaxshi o'tdi, maktabning 5-sinfiga qabul qilindi, – deya hikoyasini boshladi erkak muallim. – Tohir g'ijjak, skripka chalishga qiziqarkan. Bu sozlar mutaxassisligim bo'lgani uchun u bilan individual darslar o'fish mening zimmamga tushdi. O'quvchining xayoli parishonroq, diqqatini jamlashi qiyinroq bo'lsa ham, musiqa bo'yicha saboqlarni yaxshi o'zlashtirar, vazifalarniyam qoniqarli bajarib kelardi. Lekin boshqa fanlar o'qituvchilarining deyarli hammasi: “Tohir darslarga qiziqmaydi. Vazifalarni bajarmaydi. Sinfdoshlari bilan urishadi. Yotoqxonada hech kim u bilan bitta xonada turishni xohlamaydi”, deya shikoyat qilardi.

Tohir gaplarimga quloq solardi-yu, lekin kutilmaganda ishkali chiqarib qo'yaverardi. Maslahat bilan maktabga tajribali ruhshunos taklif qildik. U bola bilan ancha gaplashganidan keyin: “Muammolarning ildizi ko'proq o'quvchining onasi bilan bog'liqqa o'xshaydi”, dedi. Onasini chaqirdik. Ma'lum bo'ldiki, ayol eridan ajrashgan, Tohirni yoshligidan o'zi boqib kelarkan. Hamma narsadan norozi, asabiy. Hatto bir necha oydan buyon uchrashmagan bo'lsalar-da, ona-bola tuzukroq ko'rishib gaplashmadilar ham. “Avvalo, onani tarbiyalash kerak. Lekin bu juda qiyin ish. O'quvchingiz bilan suhbatdan bildimki, onasi hayotdagi barcha ko'rgiliklari uchun qasdini bolasidan olgan. Endi sizlar unga sabr-toqat bilan mehr, tarbiya ham berishingiz kerak”. Ruhshunosning bizga maslahati shu bo'ldi.

Bu gaplardan keyin ko'pchilik o'qituvchilarning Tohirga munosabati o'zgardi. Sinf rahbari yo'lini topib tushuntirgan bo'lsa kerak, sinfdoshlari ham undan shikoyat qilmaydigan bo'lib qoldi. Eng muhimi, o'quvchining o'zida ham yaxshi tomonga o'zgarishlar bo'layotganini seza boshladik. O'zaro gaplarda muallimlar hazillashib meni “Tohirning dadasi”, derdi. Chindan ham, u ertalab ishga kelganimda, o'quvchilardan birinchi bo'lib kutib olar, darsdan bo'sh paytlarida ham oldimga ko'p kelar, kechki payt kuzatib qo'yardi, unga mehrim tushib qolgandi.

O'quv yili tugab borar, yozgi ta'til oldidan deyarli hamma bolalar yuzida tez kunda jonajon oilasi, ota-onasi bag'riga borishidan xursandligi shundoq ko'rinib turardi. Faqat Tohirdagina bunday kayfiyat yo'q edi. Sababini tushunsam-da... ammo oqibati bunchalar ayanchli bo'lishi xayolimgayam kelmagandi.

Ta'tilga chiqib ketdik. Bir oylar o'tgandan keyin maktabimizning qorovuli kechqurun telefon qilib qoldi. “Bugun sizni Tohir degan o'quvchingiz so'rab keldi. “Bilmaysanmi, hozir hamma dam olishda”, dedim. Turdi, turdi, keyin ketdi”, dedi.

Keyingi haftada mudhish xabar keldi: “Tohir o'zini o'zi...”

Bu voqeaning yuz berganiga ko'p bo'lgani yo'q. Tohir so'nggi marta meni izlab kelib, uchratmay ketganidan haliyam iztirobdaman, – dedi muallim.

Balki, hayot qiyinchiliklari bemehr, jahldor qilib qo'ygan onadan, atrofidagilardan do'st topmagan bola ta'til paytida yana yolg'izlanib, umidsizlanib, dunyo ko'ziga tor ko'ringanda, musiqa muallimining mehrini, erkak muallimning ma'naviy panohini sog'inib, qo'msab, tayanch izlab kelgandir...

...Beshinchi sinfda o'qirdik. Darslarga xohlaganda keladigan, yolg'iz onaning yolg'iz o'g'li bo'lgan bir sinfdoshimizni matematika o'qituvchimiz Hakimov doskaga chiqarib:

– Beshga beshni qo'shsa, necha bo'ladi? – deb savol berdi.

Javob bo'lmadi. Domla unaqasiga ham, bunaqasiga ham aylantirib so'radi, to'g'ri javob yo'q. Shunda ustozimizdan:

– Cho'ntagingda beshta yong'oq bor edi. O'rtog'ing bilan yong'oq o'ynab, beshta yong'oq yutib olding, nechta bo'ladi? – degan savol chiqishi bilan haligi sinfdoshimiz:

– O'nta! – dedi ovozi o'qday chiqib va shu zahoti yuziga domlaning shapalog'i tushdi:

– Ha, uyatsiz! O'zingning foydangga bo'lsa, kallang

juda tez, to'g'ri ishlaydi! Foyda ko'rmaydigan bo'lsang, ahmoq bo'lib olasan-a?!

Bu voqea hech esimdan chiqmaydi. Boshqalar, balki, o'qituvchining bu ishini ayblar. Hakimov domla aslida juda og'ir-bosiq, el hurmatidagi inson edi. Nazarimda, ayni holatda o'sha tarsaki va aytilgan gapning tarbiyaviy ahamiyati katta edi.

...Keyingi yillarda maktab o'quvchilari bilan o'qituvchilari orasida (ba'zan ota-onalar ham faol ishtirokchiga aylanadi) kelishmovchiliklar oqibatida ularning gap talashishi, so'kishishi, bir-birini haqoratlashi, qo'l-u oyoqlar ishga tushib zo'ravonlik qilishlar ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuvga aylanib, muhokamalar qizib, vaqt o'tishi bilan so'nishi oddiy holat bo'lib qoldi. Shu satrlarni yozish asnosida o'zim ko'rgan-eshitganlarimni eslab chiqdim: bunaqa noxush holatlarning aksariyati o'quvchi bilan ayol o'qituvchilar o'rtasida yuz bergan. Bundan istisno bir holat ko'z oldimdan ketmaydi: unda o'quvchi qiz muallim tomonga shiddat bilan o'dag'aylab kelyapti, ko'zoynakli erkak o'qituvchi bir og'iz so'z ham aytmay, joyida tosh qotib turibdi...

Marg'ilonda maktabning 8-sinfida o'qiyotganimizda, Pedagogika institutining Fizika fakulteti bitiruvchilari amaliyotga kelib, bizga dars o'tdi. Mening

doim vazifalarni bajarib kelishim, qiziquvchanligim, ko'p savol berishimni eslab qoldimi, xullas, amaliyotni yakunlab ketganlaridan keyin talaba yigit menga xat yozibdi. “Yaxshi o'qiyapsizlarmi? Doim shunday intiluvchan bo'ling”, degan ma'noda. Hamma fanlarni, hamma o'qituvchilarni yaxshi ko'rganim uchun juda quvonib ketdim. U paytda maktubga javob yozish hozirgi kundagi telefon qo'ng'irog'iga “labbay” deyishdek gap edi. Xatga yarasha javob yozdim. Biroz muddat o'tgandan keyin ikki ayol o'qituvchimiz kutilmaganda meni darsdan keyin olib qoldi. Ularning qo'lida xatjildi ochilgan xat bor edi.

– Qara, sen xat yozishib yurgan talaba yigitning oilasi bor ekan. Endi nima qilasan? – dedi muallimamiz.

Olti yoshdan maktabga borganman, o'sha paytda 14 yoshdagi qiz... Nima javob berganim ham, o'zimni qanday tutganim ham esda yo'q. “Nima uchun menga kelgan xatni ochib o'qingiz?” deb so'rashga bilim-u jur'at qayda? O'qituvchilarimning yuqoridagi savoli tagma'nosini yillar o'tib anglaganim sayin... hurmatli muallimalarimni tushungim keladi, ammo...

YARAM YANGILANDI: kichkina qizim birinchi sinfga borganda, men ota-onalar majlisida: “Sinfning pardasi bor ekan, uni yangilamay, to'plangan pulga bolalar o'qiydigan kitoblarni olaylik”, deganim uchun muallima qizimga kunda baqiradigan bo'ldi; beshinchi sinfdaligida uzaytirilgan guruhning yoshgina muallimasiga: “Bolalar shug'ullanayotgan sinfda shashlik yer ekansizlar, shuni bolalarning oldida yemanglar”, degan iltimosimga: “Xohlarsa, qizingiz ham olib kelib yeyaversin”, degan javob oldim. Hech qancha vaqt o'tmay, o'sha muallimaning shoshilinch chaqirgan ota-onalar majlisiga bora olmaganim uchun qish kunida qizimni bir hafta davomida maktabning birinchi qavati yo'lagini yuvishga buyuribdi. Men buni qizimning bitta barmog'i ko'karib ketganini ko'rganimdan keyin sababini surishtirib bildim. Muallimaga telefon qildim: “Qish



kunida yosh bolaga sovuq suvda yo'laklarni yuvdirmang!"

Ertasiga qizim maktabdan qochib keldi, kitob jildini oldimga tashladi: "Nimaga o'qituvchimga telefon qildingiz? Hamma bolalarning oldida meni maktabdan uyga gap tashiydigan chaqimchi, deb darsning oxirigacha tik turg'azib qo'ydi..." Boshqalar nima deydi, bilmayman, ammo ayni mana shu kabi holatlarda erkak o'qituvchilar o'quvchilariga bunaqa toshyuraklik bilan munosabatda bo'lganini ko'rmaganman.

Men ham ayolman, taqdiridoshlarimning haq-huquqlari poymol bo'layotganini ko'rib ko'rmaslikka oladigan, indamay o'tib ketadigan, vaqtimni yoki asabimni ayaydigan, "Falonchiga shu ishim yoqarmikan, yoqmasmikan?" deb taroziga soladigan odatim yo'q. Ammo Yaratganning odam zotini erkak va ayolga ajratib, uning fitratiga azaldan qondek, jondek singdirib qo'yan o'ziga xos xislatlardan ko'z yumish, ularni inkor etishning og'ir asoratlari, yo'qotishlari, fojialarini bir asrdan buyon jamiyatimiz ko'rib kelyapti. Ayol dalada ketmon chopib, erkak shiyponda choy qaynatishi, xotin bozorda qop-u tog'ora sudrab, er uydagi televizor yonida bolalariga "qarab" o'tirishi, qizlar chet ellarda konteynerlarni to'ldirib "mol" tashib, yigitlar kiyim-kechak bozorlarida savdo qilishlarining oqibatida (*juda yumshoq qilib aytganda*) xalqning yemirilgan jismoniy, ma'naviy salomatligini to'liq tiklash mumkinmikan? Bunga qancha avlodning mehnat-u xarajati kerak bo'larkin? Bunga javob qani?

ODDIY AKSIOMA: oilada bolalar tarbiyasida ota vazifasini ayollar bajarolmasligini, agar hayot taqozosi bilan onaning zimmasiga shu yuk tushsa, juda og'ir va uning uddasidan hamma ayollar ham chiqa olmasligini yaxshi bilamiz-ku! Maktab ham bola uchun oilasi kabi yaqin, qadrton; umrining ko'p vaqti maktabda o'tadi. Har bir bola – bir dunyo, shunga yarasha munosabatlar kerak. Maktabda erkaklarga nisbatan hissiyotlarga beriluvchanligi, xulosa chiqarishda shoshqaloqroq ekani, tashqi belgilarga, o'tkinchi gap-so'zlarga ishonuvchanroqligi, podadan oldin chang chiqarib qo'yib, keyin pushaymon bo'lib yurishi ilmiy-hayotiy jihatdan isbotlangan biz, ayollarga erkaklar bosh, yo'ldosh, maslahatdosh, maslakdosh, yelkadosh bo'lib turmasa, dunyodagi eng og'ir, murakkab, nozik va oqibati Vatan, xalq taqdirini belgilaydigan vazifa – bolalar tarbiyasida zarur hayotiy muvozanatlarni saqlab bo'lmasligini ko'rib turibmiz.

Agar buni endi ham tushunmasak, tan olmasak, oxiri xosiyatsiz bu yo'ldan chiqib ketish choralarini ko'rmasak, zurriyotlarga jabr qilib qo'ymasmikanmiz?

...Tanaffus paytida telefonini kuzatib o'tirgan magistrant yigit kulib yubordi, xursandligi yuz-ko'zida balqib turardi. Saboqdoshlari savol ma'nosida qaragandi, so'zlay boshladi:

– Bakalavr bosqichini bitirgach, magistraturaga kirgunimcha maktabda o'qituvchilik qildim. 7-sinf rahbarliginiyam berishdi. Yangi ish boshlaganimda, o'quvchilarning maktabga vaqtida kelishi, darslarga tayyorgarligi-yu davomati, kiyinishi, yurish-turishi, muomalasi, hatto ayrimlarining chekishi, darsdan keyin yuz beradigan kutilmagan voqealarni o'rganib, sabablarini tushunib, bolalar bilan til topishib, o'z yo'limga solib olgunimcha oson bo'lmadi. O'qituvchilik juda qiyin kasb ekanini tushundim, tajribali ustozlardan maslahat oldim, o'qib-o'rgandim, bolalarning o'zlariga suyanib ishladim. Qarang, o'quv yilining oxiriga kelib sinfimiz maktabdagi eng namunali sinflardan biri bo'ldi. Hozir xursand bo'lganimning sababi... o'rmimga tayinlangan yangi ustoz sinfga kirgan ekan, bolalar unga quloq solmay, to'polon qilibdi. Yangi o'qituvchi telefonini ochib: "Men sizlarning bu holatingizni videoga olib, magistraturaga kirgan o'qituvchingizga yuboraman!" degan ekan, hamma bola jim bo'lib, darrov joy-joyiga o'tiribdi. Kasbdoshim o'sha holatni rasimga olib menga jo'natibdi. Bular – mening bolalarim, – deya magistrant telefonini ochib, atrofidagilarga ko'rsatdi: unda sinf xonasida qo'llarini partaga qo'yib, o'qituvchini diqqat bilan tinglash ishtiyoqida o'tirgan o'quvchilar surati bor edi...

Tan olish kerak, kiyinish, yurish-turish, o'qib-o'rganish, o'zaro munosabatlardagi kemtig-u noqisliklarni muhokama qilganda aksariyat erkak o'qituvchilar o'quvchining yoshligi-yu tajribasizligini hisobga olib, izzat qilib turadi. O'zi va o'zgalarning hurmatini saqlaydigan muallimalardan ming bor uzr so'ragan holda aytaman, ayrim ayol o'qituvchilar bu masalalarda o'quvchilarini ham o'z tengdoshlari qatorida ko'rib muhokama qilishlari,

xulosa chiqarishlari odob-u axloqqa zid holatlar kelib chiqishiga sabab bo'lyapti. Bu borada ko'pchiligimiz oddiy kuzatuvchilarmiz, fikr-u mulohazalarimiz asossiz, noto'g'ri bo'lishi mumkin. Keling, ta'lim-tarbiya sohasida olib borilgan xalqaro tadqiqotlar natijalariga e'tibor qaratsak.

Mutaxassislarning fikricha, maktabda erkak o'qituvchilar bo'lishi o'quvchilarning o'zlariga nisbatan zo'ravonlikka moyil bo'lmagan, ayollar bilan munosabatda ijobiy xislatlarni o'rganish mumkin bo'lgan shaxslarni kuzatishi, ular bilan muloqot qilishiga imkon beradi. Agar o'g'il bola o'zining yaqin atrofida bunday ibratli insonni ko'rmasa, hayot unga shubhali guruhlarning "avtoritet"lari, ko'cha urush-janjallarining "akaxon"larini to'g'rilab qo'yishi ham mumkin.

Olimlarning ilmiy izlanishlari xulosasiga ko'ra, maktablarda erkak o'qituvchilarning ishlashi muqobilik, zo'ravonlikka qarshi turish va gender tenglikning mardona ko'rinishlari tarqalishiga asos bo'ladi. Shu bilan birga, erkak o'qituvchilar keyingi paytlarda o'quvchilar ongiga singib borayotgan bir stereotipni yo'qotishga, ya'ni ta'lim berish erkaklarga ham, ayollarga ham munosib kasb ekanini anglatishga yordam beradi.

Nisbatan olganda, erkak o'qituvchilar darslarda o'z ijobiy qobiliyatlarini ko'proq qo'llaydi. Bu holat o'quvchilarni fanlarga qiziqtiradi, darslarni yaxshi o'zlashtirishlariga sabab bo'ladi. Erkak o'qituvchilar ayol o'qituvchilarning dars berish usullariga yangiliklar, to'ldirishlar kiritadi. G'arbiy Yevropa,


Skandinaviya mamlakatlari, Yaponiya, AQSh ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalardan chiqarilgan xulosalarga ko'ra, pedagog kadrlarni taqsimlashning eng samarali usuli shunday e'tirof etilgan: boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining ko'pchiligi ayollar bo'lishi kerak (*bolaga hali onadek yaqin inson kerak*). O'rta sinflarda erkak va ayol o'qituvchilar nisbati tengroq bo'lgani yaxshi. Yuqori sinflarda esa ayol o'qituvchilar 15-20 foizdan oshmasligi kerak.

Ayni xulosalardan kelib chiqsak, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurmoq uchun, avvalo, jamiyatimiz o'qituvchilarning hurmat-e'tiborini va hukumatimiz o'qituvchilarning moddiy ta'minotini birinchi darajali "SOS" vazifa sifatida yuksak darajaga ko'tarishi shart.

TARBIYADA TANAFFUS

BO'LMAYDI! Maktablarga eng qobiliyatli insonlar, jumladan erkak o'qituvchilar qaytishi, ular yangi avlodlar hayot-mamoti bilan bog'liq muammolar, dardlarni bartaraf etishda tabiatan kuchli toifa ko'tarishi mumkin bo'lgan mas'uliyatni zimmaga olishlari, bolajonlarimizga chin do'stdek, aka-ukadek, otadek jonkuyar va qat'iyatli ustoz maqomida muqim bo'lsalar, maktab ta'lim-tarbiya jarayonidagi biryozlamaliklar, nomutanosibliklar, noo'rin cheklanishlar-u haddan oshishlar kamayib, yo'qolib boradi, degan umiddamiz.

Muhtarama ULUG'OVA,
O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi



Xalqaro harbiy sanoat

Turkiyada

MUDOFAA SANOATINING

SHAKLLANISHI

Turkiya XXI asrda mudofaa va havo-kosmos sanoatida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu rivojlanishning aniq natijalari bo'lgan platformalar va tizimlar ham jamoatchilik, ham siyosat kun tartibidagi ustuvor va doimiy masalalardan biridir. Turkiyaning mudofaa sanoatidagi yutug'i mamlakat tashqi siyosatining yangi va samarali vositasiga aylandi.

Turk mudofaa sanoati sohasida erishilgan yutuqlarni tushunish uchun, avvalo tarixiy rivojlanish jarayonini tadqiq qilish kerak. Turkiyada mudofaa sanoatining rivojlanish jarayonini Jumhuriyat tashkil topganidan buyon oltita asosiy davrga bo'lish mumkin. Tashqi siyosatda respublikaning barpo etilishi va yangi davlatning oyoqqa turishga intilishi, keyinchalik u G'arb olamida o'zi uchun mavqe va rol ni belgilab oldi hamda shu yo'nalishda milliy xavfsizlik mexanizmini qurdi. Mamlakat ichkarisida esa mudofaa siyosatini belgilash jarayonlari pirovardida davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi rol o'ynadi.

Ushbu ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllangan oltita davmi quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. 1923–1947-yillar: Birinchi urinishlar. Respublika tashkil etilganda, muhim sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasi Usmonlilar imperiyasidan meros qolmagan. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi aviatsiya va mudofaa sohasida ham ko'plab tashabbuslar noldan boshlangan.

Bu davrda mudofaa sanoatidagi ishlar nafaqat davlat, balki xususiy sektor tadbirkorlari tomonidan ham amalga oshirilganligi diqqatga sazovor. Masalan, Turkiyaning birinchi xususiy sektor mudofaa sanoati zavodi 1925-yilda Istanbulda Shakir Zumre tomonidan tashkil etilgan. Keyinchalik Nuri Demirag' va Vecihi Hurrush kabi kashshoflar va Turk Aviatsiya Assotsiatsiyasi kabi muassasalar tomonidan ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Bu davrda tashkil etilgan Harbiy zavodlar bosh boshqarmasi bilan qurol-yarog' va o'q-dorilar ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Biroq xususiy tadbirkorlarning loyiha va faoliyati uzoq davom etmadi.

1930-yillarda jadallashgan milliy mudofaa sanoatini tiklash harakatlari Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng darhol salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urushdan so'ng juda ko'p qurol, asbob va jihozlar Turkiyaning yangi ittifoqchilari, birinchi navbatda, AQSh tomonidan taqdim etila boshlandi. Sovet tahdidi ostida juda ko'p miqdorda qurol-yarog', texnika va transport vositalari sotib olindi. Bu oqim qisqa muddatda Turk Qurolli Kuchlarining modernizatsiyasi va salohiyatini oshirishga katta hissa qo'shdi.

2. 1947–1964-yillar: NATOga kirish va transformatsiya.

1947-yil 12-iyulda AQSh bilan imzolangan harbiy yordam shartnomasi nafaqat Turkiya mudofaa sanoati, balki

uning milliy mudofaa va xavfsizlik mexanizmi uchun ham muhim burilish nuqtasi bo'ldi. AQShning Turkiyaga ko'rsatadigan harbiy yordam ko'lamini, tabiati va shartlarini belgilab bergan ushbu kelishuvning 4-moddasida Turkiya AQShning ruxsatisiz bu davlatdan olingan qurol-yarog'dan foydalana olmasligi ta'kidlangan. Keyinchalik bu jihatlar 1949-yil 6-aprelda AQSh Prezidenti Garri Truman tomonidan imzolangan o'zaro mudofaa qonuni doirasiga kiritildi. Ushbu sanadan boshlab AQShdan grant sifatida Turk Qurolli Kuchlariga katta miqdorda avtomobil, jihozlar yetkazib berildi. Turkiyaning 1952-yilda NATOga kirishi bilan uning barcha jihozlari, ta'lim va doktrinallari ittifoq bilan birlashtirildi.

Biroq bu jarayonning birinchi to'g'ridan to'g'ri salbiy natijasi mahalliy mudofaa sanoatini yo'lga qo'yish yo'lidagi qadamlarning to'xtatilishi va erishilgan yutuqlardan voz kechishi bo'ldi. Harbiy zavodlar bosh boshqarmasiga qarashli barcha ishlab chiqarish obyektlari 1950-yilda tashkil etilgan Mashinasozlik va kimyo sanoati korporatsiyasi (MKEK) bosh boshqarmasi tarkibiga kiritildi. Natijada Turkiya aviatsiya assotsiatsiyasining samolyot zavodi ham MKEKga o'tkazildi va keyinchalik to'qimachilik fabrikasiga aylantirildi.

3. 1964–1985-yillar: Jonson maktubi, Kipr embargosi va paradigma almashinuvi.

Sovuq urushda Turkiyaning NATOdagi roli sovet hujumiga qarshi turish va NATO-Varshava shartnomasi mojarosida eng oldingi davlatlardan biri sifatida NATO qo'shinlariga Yevropada vaqt berish edi. Deyarli barcha Qurolli Kuchlar mashg'ulotlari, doktrinasi, jihozlari va tashkiliy tuzilmasi shunga mos ravishda shakllantirildi. Harbiy texnika va qurol-yarog' bilan ta'minlangan Turkiya Qurolli Kuchlari ehtiyojlari uchun mahalliy ishlab chiqarish yoki texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha sezilarli faoliyat yo'q edi, ularning aksariyati harbiy yordam dasturi (MAP) doirasida AQShdan yetkazib berilardi.

Biroq milliy mudofaa sanoati mavjudligining hayotiy ahamiyati birinchi marta 1964-yilda Jonson maktubida namoyon bo'ldi.

1964-yili Kiprda yuz bergan voqealar va greklar tomonidan oroldagi turk jamiyatiga qarshi qaratilgan terror harakatlari Turkiyaning kafil davlat sifatida aralashuvini kun tartibiga olib keldi. Turkiya Kiprga harbiy aralashuvga tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda AQShning o'sha paytdagi Prezidenti Lindon Jonson tomonidan Bosh vazir Ismet Inenyuga yuborilgan "Jonson maktubi" deb nomlanuvchi

maktub turk jamoatchiligini katta hayratda qoldirdi. Ya'ni Turkiya tomonidan Kiprga bir tomonlama aralashuv yuz bersa, AQSh va NATOning Turkiyaga sovet hujumi bo'lgan taqdirda yordamga kelmasligini bildiradi, shuningdek bunday aralashuvda AQSh tomonidan taqdim etilgan qurol-yarog' va texnikadan foydalana olmasligini ta'kidlaydi.

1947-yilgi kelishuvning 4-moddasiga ishora qilingan maktubda Turkiya milliy manfaatlari va xavfsizligini himoya qilish uchun uning harbiy salohiyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda chet elga qaramlikni minimallashtirish muhimligi jamoatchilik va davlat boshqaruvi tizimiga eslatildi. Bu yo'nalishda aholining xabardorligini oshirish va tayyorgarlik jarayonlarini boshlash bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Jumladan, 1970-yilda harbiy havo kuchlari jamg'armasi, 1972-yilda harbiy dengiz kuchlari jamg'armasi, 1974-yilda quruqlikdagi qo'shinlar jamg'armasi tashkil etildi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik ongi "O'z samolyotingni yarat" aksiyasini yo'lga qo'yish orqali mustahkamlandi. Shuningdek, 1973-yilda Turk Samolyot Sanoat A.Ş. (TUSAŞ) va 1975-yilda Military Electronics Industry Inc. tashkil etildi.

Tayyorgarlik davri sifatida ham ta'riflanishi mumkin bo'lgan bu bosqichning burilish nuqtasi 1974-yildagi Kipr Tinchlik operatsiyasidan keyin 1975-yil fevral oyida AQSh ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan qurol embargosi edi. 1978-yilgacha davom etgan embargo davrida qurol-yarog' deyarli butunlay AQShdan ishlab chiqarilgan Turk Qurolli Kuchlarida ehtiyot qismlari va logistik ta'minotda jiddiy tanqislik yuzaga kelgan va jangovar tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada pasaygan. Bu jarayonda boshdan kechirilgan qiyinchiliklar turk jamiyatining umumiy xotirasida chuqur iz qoldirdi va milliy mudofaa sanoati yaratish va rivojlantirish zaruratini yana bir bor eslatdi. Biroq bu davrda yuz bergan iqtisodiy muammolar va siyosiy beqarorlik sog'lom va uzoq muddatli sanoat siyosatini ishlab chiqishga to'sqinlik qildi, zarur infratuzilma investitsiyalarini amalga oshirib bo'lmadi, ko'plab loyihalar to'xtab qoldi.

4. 1985–2004-yillar: Mudofaa sanoati maslahatchiligini tashkil etish va (qayta) ishga tushirish.

1985-yilda 3238-sonli qonun bilan Mudofaa sanoatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash boshqarmasining (SAGEB) tashkil etilishi



burilish nuqtasi bo'ldi. SAGEB keyinchalik 1989-yilda Mudofaa sanoati maslahatchiligi (SSM) sifatida qayta tuzildi va zamonaviy mudofaa sanoatini rivojlantirish hamda Turkiya Qurolli Kuchlarini modernizatsiya qilish bo'yicha asosiy boshqaruvchiga aylandi.

Bu davrda boshlangan F-16 ishlab chiqarish loyihasi, zirhli jangovar transport vositasi va HF-SSB radio loyihasi bilan milliy mudofaa sanoatiga ilg'or texnologiya ishlab chiqarish va loyiha boshqaruvi tajribalari o'rtirildi. Shuningdek, ushbu davrda F-16 loyihasi doirasida TUSAŞ Aerospace Industriyesi (TAI) TAI va General Dynamics bilan hamkorlikda samolyot ishlab chiqarish, TUSAŞ Engine Industriyesi (TEI) TAI va General Electric, Nuro'l va FMC bilan hamkorlikda tashkil etilgan Mudofaa sanoati (FNSS) xususiy sektor va xalqaro hamkorlik uchun ochiq tuzilmada rivojlana boshladi.

1985-yildan boshlangan va 2000-yillarning boshlarigacha davom etgan bu davr tajriba o'rtirish va infratuzilmani qurish jarayoniga guvoh bo'ldi. Masalan, F-16 loyihasida butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish darajasi yillar davomida oshdi va ishlab chiqaruvchi TAI'da sezilarli inson resurslari to'planishi va ishlab chiqarish qobiliyati shakllana boshladi. Xuddi shunday, FNSS, ASELSAN va ROKETSAN kabi kompaniyalar litsenziya va xalqaro hamkorlik loyihalari bo'yicha ishlab chiqarish bilan o'zlarining tajriba quvvatlarini jadal rivojlantirdi. Bu jarayonning bilvosita natijasi shundan iborat ediki, sanoat kattaroq va ulug'vor loyihalarni amalga oshirish uchun salohiyat va o'ziga ishonchni rivojlantira boshladi. 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab milliy mudofaa sanoati noyob dizayn tizimi yechimlarini ishlab chiqardi.

1990-yillardan buyon milliy mudofaa sanoati Turk Qurolli Kuchlari Jamg'armasiga aloqador ASELSAN, HAVELSAN bilan eng yuqori pog'onada; ROKETSAN TAI kabi kompaniyalar bilan piramida sxemasida tashkil etishni boshladi. Quruqlik va dengiz transportidan tashqari, boshqa tizim va yechim sohalari uchun ushbu kompaniyalarning asosiy, kichik va o'rta korxonalar subpudratchilar va yetkazib beruvchilar bo'lgan model shakllantirildi. Quruqlik va dengiz transportida asosiy pudratchilar Go'ljuk harbiy kemasozlik zavodida qurilgan suvosti platformalaridan tashqari barcha xususiy sektor kompaniyalari edi.

5. 2004–2016-yillar: Ushbu davrning boshlanishi Mudofaa Sanoati Ijroiya Qo'mitasining (SSİK) 2004-yil 14-maydagi yig'ilishi sifatida qabul qilinishi mumkin. Mudofaa sanoatining asosiy qaror qabul qilish va ijro etuvchi organi bo'lgan SSİKning ushbu yig'ilishida, asosiy jangovar tankda litsenziya ostida ishlab chiqarish modeli, uchuvchisiz uchish apparati (UUA) va shu kungacha davom etgan hujum vertolyoti loyihalari milliy kompaniyalar asosiy pudratchi bo'lgan yangi loyihalar boshlandi. Oltoy asosiy jangovar tanki va Atak hujumi va taktik razvedka vertolyoti dasturlari bu yangi strategiyaning ikkita muhim loyihasidir. Boshqa tomondan, uning boshlanishi 1990-yillarning o'rtalariga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, Milliy Ship (MilGem) korvet loyihasi ham shu davrda amalga oshirildi.

2005-yilning yanvar oyida TAI'dagi Amerikaning "Lockheed Martin" ulushini sotib olishi va TAIning birlashishi bilan "Turkish Aerospace Industries" nomini olgan kompaniya aerokosmik sohasidagi loyihalar markaziga aylandi. Xuddi shunday, 2015-yilda AQSh bilan hamkorlikda F-16 samolyotlari uchun elektron urush tizimlari ishlab chiqarish uchun tashkil etilgan Mikrodalga Elektronik Sistemleri A.Ş. (MIKES) kompaniyasi ham ASELSAN tomonidan qabul qilindi. Shu bois ushbu davrda mahalliy kompaniyalar asosiy pudratchi bo'lgan original dizayn yoki tasdiqlangan dizaynni original quyi tizimlar bilan jihozlash bilan bog'liq loyihalar amalga oshirildi.

2000-yillarning o'rtalarida iqtisodiy o'zgarishlar mudofaa loyihalariga ajratilgan resurslarni ko'paytirish imkonini berdi, bu esa turli ehtiyojlar uchun uskunalar va tizimlarni rivojlantirish loyihalarini ishga tushirishga olib keldi. Ushbu rivojlanish natijasida sohada band bo'lgan asosiy va subpudratchi mahalliy kompaniyalarning yetkazib beruvchilari hamda ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish xodimlari soni ortdi. Mudofaa sanoatiga subpudratchi sifatida kirib kelayotgan kichik va o'rta korxonalar soni ortib bormoqda.

2016-yilga kelib, mahalliy mudofaa sanoati tomonidan amalga oshirilgan ko'plab loyihalar rivojlanish bosqichini yakunladi yoki yakunlash arafasida edi. Ushbu loyihalarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, sektor mahsulot portfelini va kengroq mudofaa sanoatini loyihalashda platformaga yo'naltirilgan yondashuv afzal qilingan: MilGem, T129 Atak, Anka, Oltoy kabi asosiy platformalarning dizayni va muhandisligi amalga oshirildi. To'liq yoki ko'p miqdorda mahalliy ishlab chiqarish, asosan dvigatel, kuch tizimi, elektronika va ulami tashkil etuvchi qismlar chet eldan sotib olindi. Ushbu davr oxirida yuqorida aytib o'tilgan quyi tizim, komponentlar va ularning asosiy muhim texnologiyalari uchun mahalliy lashtirish, mahalliy rivojlanish va ilmiy-tadqiqot ishlari katta sur'atga ega bo'ldi. Shundan so'ng mudofaa sanoatida kichik va o'rta korxonalar, texnoparklar va klasterlar birinchi o'ringa chiqq boshladi.

6. 2016-yildan hozirgi kunga qadar: qayta qurish va chegaralarni surish davri.

2016-yil 15-iyulda yuz bergan davlat to'ntarishiga urinish Turkiyaning barcha ijtimoiy, byurokratik va siyosiy tuzilmalarida katta o'zgarishlarni yuzaga keltirgan burilish nuqtasi bo'ldi. Bu borada mudofaa sanoati ham bundan mustasno emas edi.

To'ntarish tashabbusidan ko'p o'tmay tuzilgan kelishuv bilan mamlakat mudofaa sanoati (SSM) Prezidentga bo'ysundirildi. 2018-yilda farmon bilan nomi "Turkiya Prezidenti Mudofaa Sanoati" (SSB) ga o'zgartirildi va SSB xuddi Milliy Razvedka Tashkiloti (MIT) kabi bevosita Prezidentga bog'langan bir muassasaga aylandi. Bu o'zgarish davlat boshqaruvi organlari tomonidan sohaga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

To'ntarishdan taxminan bir oy o'tib, Suriya shimoliga qaratilgan "Frot qalqoni", "Zaytun novdasi", "Tinchlik bahori", 2020-yil mart oyi boshidagi "Bahor qalqoni" va keyingi yillardagi operatsiyalar milliy mudofaa sanoati mahsulotlari uchun sinov maydonlari bo'lib xizmat qildi. Ushbu jarayonda tezkor operatsion ehtiyojlar va mahalliy mudofaa sanoatining mahsulotlarni taklif qilish tezligi va salohiyati o'rtasidagi keskin muvozanatning ahamiyati aniq ko'rindi.

2016-yildan keyingi davrdagi yana bir jihat barqarorlik edi. Oldingi davrda boshlangan yirik platformalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish loyihalarining aksariyati ommaviy ishlab chiqarish va ishga tushirish bosqichiga yetib borishi munosabati bilan uskunalar va platformalarning quyi tizimi, tarkibiy va muhim texnologiyalarini mahalliy lashtirishga erishildi. Shuningdek, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish – ta'mirlash va ishlab chiqarilishi va qo'llanilishi boshlangan tizimlarning butun hayotiy sikli davomida qo'llab-quvvatlandi.

2016-yildan beri mudofaa sanoati tashqi bozorda faolroq ishtirok etdi. Tez rivojlanayotgan eksport ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, sektor Qatar, Somali va Liviya misollarida bo'lgani kabi harbiy hamkorlikning muhim elementiga aylandi. Masalan, Turkiya Qurolli Kuchlari tomonidan tayyorlangan Somali harbiylari Turkiyada ishlab chiqarilgan MPT-76 piyoda miltiqlari bilan ta'minlangan; Qatardagi Turk Qurolli Kuchlari bazasida mahalliy sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan quruqlik vositalari va Firtina gaubitsalari joy oldi. Turkiyaning tashqi siyosatdagi eng yaqin



ittifoqchilaridan biri Qatar, Baykar Mudofaa mahsuloti Bayraktar TB2 uchuvchisiz uchish apparatiga (UUA) buyurtma berdi. Ko'p o'tmay, mudofaa sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanayotgan Ukrainadan ham shunday UUAga buyurtmalar oldi.

Turkiya mudofaa sanoatining tuzilishi, infratuzilmasining rivojlanishi va boshdan kechirgan o'zgarishlarni o'rganganimizda, aslida mamlakat mudofaa va xavfsizlik siyosatining tarixi orqali quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Turkiyaning xalqaro tizimda o'z oldiga qo'ygan roli, pozitsiyasi va funksiyasi sezilarli darajada o'zgargan va bu o'zgarish davom etmoqda deyish mumkin. Turkiya tashqi siyosatida, xalqaro institutlar va hamkorlikni birinchi o'ringa qo'yadigan liberal institutsionalizm paradigmasidan, ayniqsa mintaqaviy masalalarda, ikki tomonlama munosabatlarga yoki mintaqaviy hamkorlikka e'tibor qaratib, realizmning imkoniyatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan ancha yuqori paradigмага o'tmoqda. Ushbu o'tishning yetakchi aktyorlaridan biri, shubhasiz, Turkiya Qurolli Kuchlaridir. Turkiya Qurolli Kuchlarining faollik qobiliyatini rivojlantirish, ikki tomonlama yoki mintaqaviy harbiy hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish va bularning tabiiy natijasi sifatida mudofaa eksportini oshirish milliy mudofaa sanoatining vazifasi va ahamiyatini bevosita oshiruvchi omillardir.

2. Turkiyaning nafaqat harbiy texnika, texnik xizmat ko'rsatish, o'qitish va doktrina nuqtayi nazaridan emas, balki NATO ittifoqi doirasida, ayniqsa sovuq urush davrida sovet tahdidiga qarshi o'z imkoniyatlarini oshirish uchun Turkiya Qurolli Kuchlarini xorijiy harbiy yordam bilan deyarli to'liq ta'minlaganligi mudofaa sanoatini tashkil etishda ham va uni qo'llab-quvvatlashda ham milliy muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ldi.

3. Mudofaa sanoati tashqi siyosat va milliy xavfsizlikning muhim elementi ekanligi uni armiya ehtiyojlarini qondiradigan ta'minot manbai emas, balki boshqa sohalar taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Jumladan, qurol-yarog' sektori shunchaki dala ehtiyojlari uchun ishlab chiqaradigan zavodlar majmuasi emas, balki iqtisodiyot, milliy fan-texnika infratuzilmasi, tashqi siyosat kabi sohalarda ham muhim o'ziga xos salmog'i bor. Bu mudofaa sanoati infratuzilmasi, salohiyati, sanoat siyosati va rejalashtirish masalalarida harbiy-fuqarolik aloqasi va sanoat-byurokratiya-yakuniy foydalanuvchi va muvofiq lashtirish mexanizmining ishlashini talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, Qurolli Kuchlarning ehtiyojlarini aniqlashdan tortib, ushbu ehtiyojlarni ishlab chiqarish va ta'minlashgacha bo'lgan jarayon barcha tegishli harbiy va fuqarolik manfaatdor tomonlar birgalikda bo'lgan o'zaro hamkorlikda amalga oshirilishi kerak. Chunki qurol tizimini xarid qilish (*yoki yetkazib bermaslik*), ishlab chiqarish (*yoki ishlab chiqarmaslik*) haqidagi qarorlarning barchasi nafaqat harbiy, balki siyosiy, iqtisodiy va sanoat ahamiyatiga ham ega.

4. Shu o'rinda Turkiyaning Rossiya Federatsiyasidan S-400 havo mudofaa tizimini sotib olishi va bu xarid qarorining siyosiy, harbiy va iqtisodiy oqibatlariga haqida gapirish kerak. Bu qaror Turkiyaning xususan, AQSh va umuman G'arb ittifoqi bilan munosabatlarida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Turkiya sotib olish qarorini favqulodda ehtiyojlarni qondirish, mushtarak ishlab chiqarish va texnologiya transferi kabi mavzularda G'arb ittifoqchilaridan ko'ngli qolgan argumentlar bilan izohladi. Bundan tashqari, Rossiya va Turkiya rasmiylari S-400 tizimlarining birinchi paketini davom

ettirishda qo'shimcha xaridlar, jumladan qo'shma ishlab chiqarishni muhokama qilinayotganini aytdi. Turli tizim va texnologiya sohalariidagi hamkorlik masalalari muhokama qilingani matbuotda aks ettirilgan.

Garchi bu jarayon ancha kengroq mudofaa sanoati texnologiyasi va ishlab chiqarish kooperatsiyasiga aylanishi dargumon bo'lsa-da, S-400 tizimining tayyor xaridlar yo'li bilan sotib olingani yuqorida aytib o'tilganlarning siyosiy va strategik ta'sirining yaxshi namunasidir. Turk havo mudofaasi erta ogohlantirish va qo'mondonlik-nazorat tarmog'iga texnik jihatdan integratsiya qilinmaydigan ushbu tizimlar orqali Rossiya bilan logistika, ta'lim va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy ta'minot kanalini yaratish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, to'liq samaradorlik bilan ishlashi uchun qo'shimcha radar, past balandlikda va qisqa masofali havo hujumidan mudofaa tizimlari hamda aloqa infratuzilmasi talab qilinadi. Rossiya mudofaa sanoatini u yerdan tayyor holda sotib olish yoki Turkiyaning mavjud tizimlarini birlashtirish uchun juda chuqur va yaqin aloqalarni rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu nafaqat harbiy ehtiyojlar yoki mudofaa sanoati siyosati doirasida emas, balki juda ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi kerak bo'lgan bir qator strategik qarorlarni qabul qilishni anglatadi.


Natijada Turkiya mudofaa sanoatining tashqi siyosat vositasi sifatidagi vazifasi, bu sohada imkoniyatlar chegaralari boshqacha qilib aytganda, potensial energiyani kinetik energiyaga aylantirish qobiliyatini sinab ko'rish orqali uni rivojlantirayotganini anglatadi. Mudofaa tizimining eksport faoliyati va harbiy hamkorlik, mashqlar, bayroq ko'rsatish va insonparvarlik yordami kabi jangovar operatsiyalarni rejalashtirish, amalga oshirish va boshqarishda Yaqin Sharq va Sharqiy O'rta Yer dengizi havzasida ko'proq mustaqil manyovrlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ortib borayotgan sur'atning harakatlantiruvchi kuchi, shubhasiz, milliy mudofaa sanoati mahsulotlari va imkoniyatlarini gorizontaal va vertikal ravishda kengaytirishdir. Muhim jihati yuqori texnologiyalarga, inson kapitalini himoya qilish va rivojlantirishga xorijiy qaramlik asta-sekin bartaraf etilmoqda.

**Podpolkovnik
Farhod ABDURAZAKOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
siki boshlig'i,
Podpolkovnik Ilhom XOLOV,
kafedra o'qituvchisi**

9-iyun – Xalqaro arxivlar kuni

Ko'hnadan BUGUNGACHA BOSIB O'TILGAN YO'L

Har bir millatning ma'naviy qiyofasi uning yozma yodgorliklari, tarixiy hujjatlari madaniy merosida mujassam. Bu bebaho boyliklarni asrab-avaylash, avlodlarga yetkazish vazifasini esa arxivlar bajaradi. Shuning uchun ham arxivlar millatning o'tmishini buguni va ertangi kuni bilan uyg'unlashtiruvchi ma'naviy ko'priki, deya e'tirof etiladi.



Zero unda asrlar uyqusidan uyg'ongan tarixiy hujjatlar, qo'lyozmalar, jim turib ham guvohlik beradi: ular xalqning sharafli yo'li, mardonavor jasorati va ma'naviy qudratini dalillaydi. Shu bois har yili 9-iyun dunyo bo'ylab Xalqaro arxivlar kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu kunda nafaqat hujjatlarni saqlash va targ'ib qilishda xizmat qilayotganlarning mehnati e'tirof etiladi, balki insoniyatning tarixga sadoqati, ma'naviy merosga hurmati ham ulug'lanadi.

O'zbekistonda arxivchilik an'analarini nihoyatda boy tarixga ega. Aslida arxivchilik rasmiy ravishda XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa-da, uning ildizlari yurtimizning qadimiy davlatchilik an'alaridan suv ichgani bor haqiqat. Chunki qadimiy yozma hujjatlarni saqlash va avlodlarga yetkazishda turli usullardan foydalanilgan: sopol lavhalar, papiruslar, teridan tayyorlangan hujjatlar, qog'oz qo'lyozmalar xalqning yozma merosini asrab-avaylab, unga ma'naviy va tarixiy qimmat baxsh etgan.

Shuningdek, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon kabi qadimiy shaharlar o'z davrida nafaqat savdo va ma'rifat maskani sifatida, balki yozma yodgorliklar, devonxona hujjatlari, rasmiy farmonlar va solnoma daftari kabi tarixiy hujjatlarni asrab-avaylab saqlovchi boy arxivga ega ma'naviyat markazi sifatida ham dovrug' qozongan. Mashhur sharqshunos olim A. Sagdullayev ta'kidlaganidek, qadimda yozma yodgorliklar nafaqat davlat idoralarda, balki madrasalar, masjidlar va kutubxonalarda ham ehtiyot qilib saqlangan.

Masalan, Buxoro amirligida davlat boshqaruviga oid devonxona tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda yer-suv ishlari, aholi ro'yxatlari, hukumat farmonlari, iqtisodiy va harbiy masalalarga oid hujjatlar ehtiyotlab saqlangan va bu hujjatlar xalqning davlatchilik an'anasi, urf-odatlari va ma'naviy hayotining tirik guvohi sifatida xizmat qilgan.

Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi, Registon majmuasi va Bibixonim masjidi devonxonasida esa buyuk allomalar – Abu



Ali ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarning noyob asarlari, qo'lyozmalari va yozma yodgorliklari avaylab saqlangan.

Xiva xonligida Buxoro amirligidagi kabi ish yuritish, hujjatlarni saqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan devonbegi, parvonachi, kitobdor kabi lavozimlar mavjud bo'lgan.

Qo'qon hukmdorlari ham davlat ishlarini rasmiylashtirish hamda farmonlar va muhim hujjatlarni saqlash uchun maxsus devonxona tizimini yo'lga qo'ygan.

Asrlar silsilasida o'zida faqat tarixni emas, balki ajdodlarimiz turmush tarzi, orzu-umidlari, urf-odatlari va ma'naviy qudratini aks ettirgan manbalar va yozma yodgorliklar ko'plab tadqiqot ishlarida, ilmiy izlanishlarda tarixiy haqiqatlarni ochiqlovchi uchun bebaho xazina bo'lib xizmat qildi. Bu esa tarixiy manbalarning qimmatini yanada oshirdi.

Keyingi yillarda yurtimizda arxivchilik tizimi zamon talablariga mos ravishda rivojlandi. Jumladan, sohada olib borilgan islohotlar natijasida Mudofaa vazirligi Markaziy davlat arxivida ham arxiv ishi va ish yuritish sohasida zarur infratuzilma yaratildi. Arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishda ijobiy natijalarga erishildi hamda muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakllantirildi. Mazkur maskanning 2021-yilda yangi binoga ko'chirilishi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki ilg'or texnologiyalar va zamon talablariga to'la javob bera oladigan shart-sharoitlar tarixiy, harbiy, siyosiy, ilmiy va ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarning uzoq va yaxshi holatda saqlanishini kafolatlaydi.


– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy davlat arxivi 1941-yili Turkiston harbiy okrugi



tarkibida "Отдел архивов штаба Туркестанского военного округа" nomi bilan tashkil etilgan. 1941-1991-yillar davomida bu maskan Turkiston harbiy okrugi harbiy qism va muassasalaridagi mavjud bo'lgan arxiv hujjatlarini qabul qilib, uning hisobini yuritgan va saqlagan. O'sha yillari arxivga qabul qilingan hujjatlar 3 yil mobaynida saqlanar, so'ngra Moskva viloyatining Podolsk shahrida joylashgan SSSR Mudofaa vazirligi Markaziy arxivga saqlash uchun yuborilar edi. 1991-yildan keyin qaytadan tashkil etilgan Mudofaa



vazirligi Markaziy davlat arxivi hozirgi kunga qadar harbiy qism va muassasalardan arxiv hujjatlarini qabul qilib, uning hisobini yuritadi hamda hujjatlarni asl holatida saqlaydi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy davlat arxivi boshlig'i podpolkovnik Zafar Mashrapov. – Shu o'rinda ta'kidlashim kerak, 2021-yilda arxivimizning yangi binoga ko'chirilishi sohaning rivojlanishiga, ish sifatining oshishiga xizmat qildi. Muhimi, respublika hududidagi mudofaa ishlari bo'limlaridan, gospitallarda va boshqa muassasalardan yuz mingdan ortiq saqlov birligidagi arxiv hujjatlarini qabul qilish imkoniyati yaratildi. Hozirgi kunda arxivimizda 130 mingdan ortiq hujjat mavjud. Ular orasida 1918-, 1920-, 1939-, 1945-yillarga tegishli ko'plab qimmatli hujjatlar mavjud. Biz bu tarixiy



manbalarni o'z holicha saqlash orqali O'zbekiston Respublikasi Milliy fondini yuritish, saqlash va rivojlanishiga hissa qo'shayotganimizdan mamnunmiz.

Darhaqiqat, jamiyat hayotida arxivlar o'ziga xos axborot markazi sifatida muhim o'ringa ega. Ular orqali o'tmish voqealari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar haqida ilmiy bilimlar shakllanadi. Shuningdek, arxiv hujjatlari nafaqat tarixni o'rganishda, balki insoniyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishini baholashda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, tarixiy bilimlar, ma'lumotlar insoniyat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishining qimmatli dalilidir.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA,
"Vatanparvar"**

Dolzarb 90 kun

YANGI O'ZBEKISTON yoshlari –

kelajak bunyodkori!

Bugun mamlakatimiz yoshlarining intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan rivojlanishi, ularning ta'lim olishi, sog'lig'ini saqlash, bandligini ta'minlash hamda mazmunli hordiq chiqarishlari uchun barcha qulaylik va shart-sharoitlar yaratilmoqda.



Xususan, ayni kunlarda o'quv yili tamomlangani munosabati bilan yozgi ta'tilga chiqqan ertamiz egalarining bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ular bilan turli ko'ngilochar tadbirlar, ko'rik-tanlov hamda musobaqalarning o'tkazilishi yoshlarimizning uzluksiz rivojlanish bosqichlarida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, olis chegaraoldi hududlaridagi kelajagimiz bunyodkorlarini shu kabi keng qamrovli tadbirlarga jalb etish, ular bilan jismoniy hamda aqliy salohiyatini yanada yuksaltiruvchi musobaqalarni tashkil etish nihoyatda ahamiyatli ekani sababli, respublikamiz bo'ylab Davlat

xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda sarhadlarimiz posbonlari hamda mahalliy aholining farzandlari uchun keng ko'lamli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi harbiy qismlarning birida "Mening dadam – chegarachi!" mavzusida o'tkazilgan eng mohir musavvir ko'rik-tanlovida bolajonlarning ijodiy imkoniyatlari va mahoratlari to'la-to'kis namoyon bo'ldi. Tanlov davomida ishtirokchilar o'z tasavvurlari orqali Vatanimiz himoyasida turgan otalarining qiyofasini ifoda etishga harakat qildilar va natijalarga ko'ra, eng mahoratli deb topilgan bolajonlar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shu kabi ko'rik-tanlov Farg'ona viloyatidagi harbiy qismlarning birida ham "Bolalarga bering dunyoni!" shiori ostida tashkil etilib, unda jajji mo'yqalam sohiblari o'z orzu-umidlari hamda o'y-istaklari bilan beg'ubor bolalik, baxtiyor oila va undagi shodon farzandlar suratlarini chizish orqali barchaning ko'ngliga quvonch va zavq tuyg'ularini ulashdi. Yosh musavvirlarning suratlarini e'tirof etilgach, ularga sovg'alar taqdim etildi.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida joylashgan harbiy qismda esa bolajonlar uchun sport musobaqalari, ko'ngilochar dasturlar hamda qo'g'irchoq teatri tomoshalari tashkil qilindi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashda insoniylik hamda mehr-oqibat hamisha g'olib ekanini namoyish etgan ertak qahramonlari bolajonlarda katta taassurot qoldirdi.

Surxondaryo viloyati qo'g'irchoq teatri tomonidan ham hududdagi harbiy qismlarda yurt himoyachilarining hamda mahalliy aholining farzandlari uchun "Quvnoq arava" nomli spektakl namoyishi bo'lib o'tdi. Tomosha davomida ertak qahramonlari bolajonlar bilan turli savol-javoblar va qiziqarli o'yinlarni ham tashkil etdilar. Shu kabi tomoshalar Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi jamoasining farzandlari uchun ham tashkil etilib, teatr ijodkorlari tomonidan musiqiy shou dasturi namoyish etildi. Ertak qahramonlari bilan uchrashuv bolajonlarga olam-olam zavq baxsh etdi.

Termiz shahridagi harbiy qismlarning yana birida kichkintoylar ishtirokida o'tkazilgan uzoqlikka yugurish, rasm chizish, shaxmat-shashka va quvnoq estafeta kabi musobaqalarda faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan quvnoq bolajonlar ham tashkilotchilar tomonidan maxsus diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Ertamiz egalarining yozgi ta'tilini mazmunli va maroqli tashkil etish maqsadida o'tkazilayotgan shu kabi tadbirlar Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi bo'linmalarda ham "Yoz – o'tmoqda soz" shiori ostida bo'lib o'tdi.

– Bugun mazza qilib o'ynadik, men va do'stim Firdavs she'r aytdik, Azizbek esa qo'shiq kuyladi. Bizga shirinlik va sovg'alar berishdi. Mazza qilib raqsga tushdik. Judayam xursandmiz, hammaga rahmat, – deydi tadbir qatnashchisi Umarjon Alimov.

Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi harbiy qism va bo'linmalarda tashkil etilgan badiiy ijod va sport bellashuvlarida ham jajji qalb sohiblari o'zlarining iqtidorli, salohiyatli, zukko, epchil va chaqqon bolajon ekanliklarini namoyon etdi.

Albatta, Yangi O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz bunyodkori, hayotimiz davomchisi, orzu-umidlarimiz ro'yobini ta'minlovchi asosiy kuchdir. Shu boisdan, ularga qaratilayotgan e'tibor bu kelajakka qaratilayotgan e'tibordir. Farzandlari ana shunday diqqat-markazida bo'lgan harbiylar esa ertasidan ko'ngli to'q holda o'z burchini sidqidildan bajarishda davom etadi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Bugun qo'lni qo'lga berib, birlashmoqqa chorlar yurt!

Ushbu sahifamiz orqali shoir Dadaxo'ja No'monning yurtni madh etuvchi she'rlari, allaqachon qo'shiqqa aylanib ulgurgan ash'orlaridan bahramand bo'lasiz.



O'zbek ofitserlari

Tariximiz ko'hnadir,
Unut bo'lmas kunlari.
Vatan uchun kurashgan
Yigitlarning sherlari.

Yurtimizning yovlardan
Tozalangan yerlari.
Bunda mardlik ko'rsatgan
O'zbek ofitserlari.

Yovga qarshi ayovsiz
Kurash olib borganlar.
Birinchildan bo'lib
Mirkomil Mirsharoflar.

Tuzilgandi - birlamchi
O'zbekning diviziyasi.
Bugun dunyoga mashhur
O'z milliy armiyasi.

Dunyo maydonlarida
Porlar Vatan erlari.
Mardona, jasur o'g'lon
O'zbek ofitserlari!

Vatandir bu...

Sen dunyoga kelgan kuning,
Vatandir bu, Vatandir bu...
Gohi kech, goh tong yulduzing,
Vatandir bu, Vatandir bu!

Uxlatmay tong ottirganing,
Onangdir u, Vatandir u,
Beshiging tebrattirganing
Otangdir u, Vatandir u!

Unib-o'sgan shu qishlog'ing,
Yegan noning - ichgan oshing,
Yigit bo'lib - bo'y o'sgoning,
Vatandir bu, Vatandir bu!

O'qib bilim olganliging,
Xizmatga shay turganliging,
Davru davron surganliging,
Vatandir bu, Vatandir bu!

Senga meros - aziz tuproq,
So'qmoqlari yolg'izoyoq,
Goh binafsha, gohi yantoq,
Vatandir bu, Vatandir bu!

Nafasingda ajdod isi,
Vatandir bu, Vatandir shu,
Temurbek, To'marislari izi,
Vatandir - O'zbekiston bu!

Mozoriston bag'rida tinch
Yotgan ota-bobolarim.
Ham qarindosh, qo'ni-qo'shni,
O'tgan ona-momolarim,
Vatandir bu, Vatandir bu!

Mudofaada turgan o'g'lon,
Sergak, jasur - safda sarbon,
Barcha do'stlar ham qo'mondon
Vatandir bu, Vatandir bu!

Bu Vatan

Sen dunyoga kelgan kun
Kunduzmidi yoki tun,
Kindik qoning inchunin,
Tomgan makoning Vatan.

Uxlamay tong ottirgan,
Onang derdi: shu Vatan.
Beshigingni tebratgan,
Otang derdi: shu Vatan.

O'sgan uying, qishlog'ing,
Yegan noning, qaymog'ing,
Bog'-u rog'ing, o'tlog'ing,
Urug'-aymog'ing, Vatan.

Yurtingni sevgin bolam,
Vatan joning, jahoning.
Merosdir aziz tuproq,
Asil manzil-makoning.

Jangovar shay tur o'g'lon,
Sergak, mardona posbon.
Ishonching Bosh qo'mondon,
Ibrat, namuna sarbon!

Barchamiz bir tan, bir jon,
Bir yurakmiz jonajon.
Onamizday mehribon,
Shu Vatandir - shu Vatan!
Bu Yangi O'zbekiston!

Saf qo'shig'i

Safda tashlang mardona qadam,
Armiyamiz qudrati uchun.
Dunyo uzra hilpirab turgan
Bayrog'imiz shuhrati uchun!

Vatan uchun tirgak qo'rg'onlar,
Ishq, muhabbat - sevgi beringiz!
Sarhadlarda sergak o'g'lonlar,
Sharaflagay ona yeringiz!

Bir, ikki, uch - barakalla!
Faqat olg'a bosing har palla!
- Bir, ikki... marra bizniki, -
Deb hayqiring - barcha baralla!



Bizning bobolar

Tarixdan mard bo'lgan bizning bobolar,
Vatan deb kurashgan buyuk sarkarda.
Qalbida sadoqat, jasorat bo'lgan,
El-yurtga muhabbat har bir navkarda.

Sulton Jaloliddin matonatidan
Lol qolgan dunyoni titratgan zotlar.
So'ng Temur bobomning adolatidan,
Muqarrar yo'q bo'lgan qirg'inbarotlar.

Men asli shu buyuk zotlar nasliman,
Muqaddas izlarin asrab bosgayman.
Men shu tinchliksevar xalqning qalqoni,
Mardlar safidaman, jasur askarman!



Armiya tarixi

HARBIY OKRUG MUZEYI

Markaziy harbiy okrugda yurtimiz mudofaa salohiyati, harbiy an'analar va tarixiy merosni asrash maqsadida tashkil etilgan muzeyning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, harbiy xizmatchilar, faxriylar, keng jamoatchilik vakillari, yoshlar hamda OAV xodimlari ishtirok etdi. Tadbir ishtirokchilari yangi muzey ekspozitsiyasida okrug tarixiga oid muhim ma'lumotlar, arxiv hujjatlari, harbiy texnika maketlari, faxriylar xotirasi va jasorat namunalari, shuningdek Samarqand viloyati tarixi bilan tanishdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar muzeyning ahamiyati, uning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni haqida alohida to'xtalib o'tdi. Ta'kidlanganidek, ushbu muzey harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, xalq va armiya birligini kuchaytirish, tarixiy haqiqatlarni saqlash hamda kelgusi avlodga yetkazishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Marosim doirasida faxriylar, harbiylar va yoshlar o'rtasida samimiy muloqot, ochiq darslar va vatanparvarlikka oid suhbatlar tashkil etildi.

Bugungi kunda armiyamiz tarixini chuqur anglash, harbiy merosimizni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Shu ma'noda, Markaziy harbiy okrug muzeyining ochilishi nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki ruhiy-ma'naviy tayanchni mustahkamlash yo'lida tashlangan muhim qadamdir.



Jasorat maktabi

TO'G'RI MAQSAD KO'RSATMOQDA

Toshkent harbiy okrugining Chirchiq hamda Angren garnizonlaridagi harbiy qismlarda "Jasorat maktabi" o'quv yig'inining navbatdagi bosqichi o'z ishini boshladi.

Yig'inning ochilish marosimi ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda harbiy xizmatchilar, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat hamda shahar kengashi, harbiy prokuratura xodimlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, shuningdek viloyat va shaharning turli hududlaridan tashrif buyurgan yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda harbiy qism qo'mondonligi hamda viloyatning mutasaddi tashkilot rahbarlari so'zga chiqib, ushbu yig'in yoshlar uchun ko'p imkoniyatlar berishini so'zladi. Undan oqilona foydalanish lozimligi va buning samarasi sifatida o'tgan yig'inlardagi yoshlarning erishgan yutuqlari misol qilib keltirildi va yoshlarning ulkan muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonch bildirildi.

"Jasorat maktabi" doirasida yoshlar Qurolli Kuchlar faoliyati, harbiy tayyorgarlik, fuqarolik burchi va vatanparvarlik g'oyalari asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etmoqda. Harbiy saf, qurol bilan ishlash, shuningdek jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari yoshlar uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Yig'in faqat mashg'ulotlar bilangina cheklanmay, ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar, sport musobaqalari, turli madaniy tadbirlar orqali ishtirokchilarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etiladi. Bunday faoliyat yoshlar o'rtasida o'zaro do'stlikni mustahkamlab, jamoada ishlash, yetakchilik va tashabbus ko'rsatish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. "Jasorat maktabi" yoshlarga to'g'ri maqsad va yo'l ko'rsatmoqda.



Biz, o'zbeklar

Juvon bolalarining kelajagi poytaxtda yanada yorqinroq bo'lishiga ishonardi. Ayniqsa, to'ng'ichi Sardorning murabbiyi: "Undan umidlarim katta, poytaxtda mendan ham kuchliroq murabbiylar tarbiyasini olsa, yaxshi bo'lar edi", deganidan so'ng aniq bir qarorga keldi. Bu poytaxtga ko'chish qarori edi. O'zi ham poytaxt ijodiy muhitiga kirib qolsa, ajab emas. Ammo eri ko'narmikan? Qarorini aytganida eri avvaliga tixirlik qilib ko'nmadi, so'ng istar-istamas rozi bo'ldi.



ODAMIYLIK BOR BO'LSIN

Toshkent... Bu yerga yuksak orzularni ortmoqlab keladilar. Hammasi ham ushalmaydi. O'rnida parchalangan qalblar, uloqqan, adashgan taqdirilar qoladi. Ba'zi orzular amalga oshishi g'oyat qimmatga tushadi.

Yosh ayol intilgan katta shahar uni quchoq ochib kutib olmadi. U oson bo'lmasligini bilar edi ammo bunchalar mashaqqatli, og'riqli bo'lishini tushida ham ko'rmagan edi.

Mahalla ahli ularni qabul qilishi qiyinroq bo'ldi. Ular bu yerlarga begona edi. Maktabda ishlay boshladi. Shahar bilan qishloq bolalari farq qilar ekan. O'qituvchi sifatida tan olishlari qiyin kechdi. Tan olganlarida, unga mehr qo'yib qolganlarida, u bu maktabdan ketdi.

Bolalariga go'zal tarbiya bergan edi. Aka-uka maktabda a'lo o'qishar, sport to'garaklariga qatnardilar. O'zlari yashayotgan "dom" atrofni tozalashdan or qilmas edilar. Tanimasalar ham yoshi katta insonlarning qo'lidan yukini olib, yordamlashardi. Hovliga chiqarib qo'yilgan chiqindilarni yugurib, chiqindi qutisiga tashlab kelishar, buning uchun birovdan "rahmat" kutmas edilar. Xuddi onalari qo'lidan yukini olgandek, onalari tashvishiga yelka tutayotgandek o'zlarini tutishi kattalarning e'tiborini tortdi. Ular shu tariqa odamlar qalbini zabt etdi.

Bir kuni eri kasallanib qoldi. Dorilar yozilgan qog'ozni katta o'g'liga berib, yaqinroqdagi dorixonaga yubordi. Oradan ko'p fursat o'tmadi. Qo'rqinchli xabardan hushi boshidan uchdi.

Ularning uyi temiryo'l yaqinida joylashgandi. Juvon bolalariga to'xtab turgan poyezd tagidan o'tmaslikni tinimsiz tayinlardi. Shu kuni Sardor shoshildi. Yo'lni qisqartirish uchun to'xtab

turgan platforma ustidan oshib o'tmoqchi bo'ldi. Katta kuchlanishli elektr simi uzilib, platforma ustiga tushgan ekan... Tok urishidan a'zoyi badani kuyib ketgan bolaning yashab ketishiga umid yo'q edi.

Dahshatli lahzalar... Bemor otaning ahvoli yanada og'irlashdi, ukasi Shohrux qo'rquvdan behush yotardi. Ona uchun benihoya og'ir kunlar boshlandi. Qarindosh-tuqqanlardan yiroqda, yolg'izgina o'zi Sardorning o'lim bilan olishayotganini kuzatish... Bola shifoxonaning kuyganlar uchun maxsus boksida yotar, og'riqning zo'ridan o'zini har yonga otardi. Derazaga qapishganicha

bu holatni kuzatib turgan onaning parchalanayotgan yuragi... Yillar kechsa-da, o'sha deraza, deraza ortidagi azob unutilmadi. She'rilarida deraza bot-bot takrorlanadi.

U o'zini yolg'iz sezar edi. Ammo... O'sha fojiali tunda yosh shoira Shoira Ermatova turmush o'rtog'i bilan yetib keldi. U qarindosh-urug'larini, qo'ni-qo'shnilarini oyoqlantirdi. Sardorga qon quyish kerak edi. Odamlar kasalxonaga oqib kela boshladi. Hammasi begona edi, qozoq, rus, tatar, tojik. Biroq qo'shnilarini begona deb bo'lmaydi-da! Sardorga ko'rsatilayotgan oqibatdan hamma hayratga tushdi. O'sha eng og'ir kunlarda

odamiylikning eng go'zal namunasi edi, bu!

Bolaning yashab ketishidan hatto shifokorlar ham umidsiz edi. Birgina u umidini uzmad. Chunki u ona edi! Bola hayotga qaytishi uchun mo'jiza yuz berishi kerak, dedilar. Mo'jizalar bo'lmaydi-da. Yo'q, mo'jizalar bo'ladi faqat ishonish kerak. Sardor tuzalib ketdi, hatto chandiqlar ham qolmadi.

Sardor tuzalib ketdi. Qarang, men bu uch so'zni qanday oson yozdim. Yozilishi, aytilishi oson ekan. Onalar bolasi bilan sinalmasin ekan. Kuygan vujudning tuzalishi juda qiyin. O'sha kunlar, haftalar, oylar onaning ham

yurakkini kuyib ketdi. Tag'inam onalar bardoshli bo'lar ekan... Bardosh... Agar og'ir sinovlar tufayli sevimli kasbing muallimlikni ovozingni yo'qotganing sabab davom ettirmay qolsang, buning nomini nima deyishadi?!

Keyinchalik u shunday yozdi: "O'lo' onalarni bolasiga dard berib sinar ekan. Bolam kuydi. Yuragimning kuyuklari ko'zlarimdan qon bo'lib, tomchilay-tomchilay meni ado qilayotgan o'sha damda sizdan onalikning buyuk qudratini topa oldim, Shoiraxon, singilginam!

Siz: "Shu bola mening bolam bo'lganda nima qilardim", deya yugurib-yeldingiz. Qo'l uchida kun ko'rib turgan mendek chorasiz bir ayolga tirkak bo'ldingiz. Siz oddiygina qo'shnim edingiz, xolos. Sizning "Sardorjonning tirik qolgani umrimning mukofoti", degan so'zlaringiz hamon quloqlarimdan ketmaydi. Birovlarning baxtini mukofot deb bilgan singiljon, sizga ta'zim qilaman".

O'zi ijarada turib oddiygina yashayotgan Shamg'iy qo'shnim hatto kasalxonadan chiqqanimizdan so'ng ham yordamini ayamadi. Qozoq qo'shnim "Sardor o'lmasligi kerak, yaxshiroq yedirib-ichiring", deya kattagina miqdorda pul berib ketdi. Tatar qo'shnim Feruza opa singillari bilan har kuni kasalxonada yonimda turdi.

Yana ko'p insonlar, olis London shahridan Gulsevar Rizayeva yetib keldi, shoira Mohiniso Kamolova, kasbdoshim Gulbahor opa, qo'shnilarimiz Gulsina opa, Tonya va Solya buvijonlar, Gulnora, Tozagul, Mavluda, Yulduz, Nigora - ularning har biri haqida bir kitob yozsam kamlik qiladi.

Unutma bolaginam, tomirlaringda ularning mehrdan yaralgan qoni oqmoqda. Yaxshilik seni hayotga qaytardi".

Aziz o'quvchi, yuqoridagi voqea to'qima emas. Bu bilan qo'shnichilik, mahalla-ko'y deganlari oddiy narsalar emasligini eslatgim keldi. Buni to'qimadim, bo'rttirmadim. Bu voqea taniqli ijodkor Gulbahor Jumayevaning hayotidan bir parchadir. Mahalla ham o'zimizning poytaxt bilan Qibray tumani tutashib ketadigan Boyjigit mahallasi.

O'sha, 2003-yili oila uchun sinovli kunlarda ichuvchi bir qo'shnining kasalxonaga borib, "Mendan ham qon olinglar, qonim zaharli emas, ichuvchining qoni zaharli bo'lmaydi..." deb Sardor uchun yig'lab turganini opa gapirib bergan.

Gulbahor opa Boyjigitga yaqin boshqa mahallaga ko'chib o'tgan. Ammo oqibat bardavom. Undan xabar olib turishadi, aka-ukalar mahalla ahliga chiroyli ehsanlar qilishni odat qilganlar.

Ha, biz shunday xalqimiz, ibrat bo'lgulik mehr-oqibat rishtalari bilan bog'langanmiz.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"



Salmonellyoz kasalligi va profilaktikasi



Salmonellyoz kasalligi oshqozon-ichak yo'llari infeksiyasiga mansub kasalliklar guruhiga kirib, uni salmonellalar turkumidagi bakteriyalar keltirib chiqaradi.

Salmonellyoz kasalligi dunyoning barcha hududlarida uchraydi. Hozirgi kunda dunyoda ko'pgina yuqumli kasalliklarni kamaytirish, ba'zilarini esa batamom yo'qotishga erishilgan, biroq shunga qaramay, salmonellyoz bilan kasallanish darajasi yuqorilgicha qolmoqda.

Salmonellaning hozirgi kunda 2 200 dan ortiq turi (*serotiplari*) mavjud. O'zbekiston sharoitida salmonellyoz bilan kasallanishda qo'zg'atuvchilar ichida asosiy o'rinni "Salmonella typhimurium" turi egallaydi va ushbu kasallikning 70-75 foizini tashkil etadi. Salmonellalar mayda tayoqchasimon

bakteriyalar bo'lib, tashqi muhitda uzoq vaqt yashay olishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, ular ochiq suv havzalarida va ichimlik suvida 11-20 kungacha, tuproqda 30-210 kungacha, kolbasa mahsulotlarida 60-130 kungacha, muzlatilgan go'shtda 6-13 oygacha, tuxumda 13 oygacha tirik saqlanib qolishi mumkin. Salmonellalar sut va sut mahsulotlarida: xom sutda 10 kungacha, qaynatilgan sutda esa 40 kungacha yashay oladi. Shu bilan birga tuxum va undan tayyorlangan mahsulotlar, baliq va baliq mahsulotlari ham kasallikning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Salmonellyoz kasalligida infeksiya manbai bo'lib shu kasallik bilan xastalangan hayvonlar, parrandalar va odamlar xizmat qilishi mumkin. Kasallikning aholi o'rtasida tarqalishida, kasallikning yengil kechishi natijasida, uni oyoqda yurib o'tkazayotganlar hamda bakteriya tashuvchilar asosiy rol o'ynaydi.

Odamlar bemor odamning yoki hayvonning najasi bilan zararlangan oziq-ovqat mahsulotlarini yoki ifloslangan suvni iste'mol qilishi natijasida kasallikni yuqtirib olishi mumkin. Shu bilan birgalikda, kasallik maishiy - muloqot yo'li

bilan, ifloslangan idish-tovoq va boshqa umumiy foydalanish buyumlari orqali ham yuqishi mumkin.

Hayvon va parranda go'shtidan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarining tayyorlash texnologiyasi buzilishi natijasida ham yuqishi mumkin. Shunisi qiziqki, salmonellalar bilan zararlangan mahsulotlarning tashqi ko'rinishi va ta'mi o'zgarmaydi.

Kasallikning tarqalishida hasharotlar, ayniqsa suvarak va pashshalarning ham o'rni juda katta. Bu hasharotlar asosan hojatxona, axlatxonalarda tuxum qo'yib yetiladi.

Kasallik qo'zg'atuvchilari inson organizmiga og'iz orqali tushadi hamda me'da va ayniqsa ichak yo'lida ko'payadi. Kasallik qo'zg'atuvchilari o'zidan toksin, ya'ni zahar ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lib, butun tanani zaharlaydi. Mikroblar odam organizmiga tushishi bilan kasallik keltirib chiqarmaydi, ma'lum muddatgacha ichakda ko'payadi. Bu muddat xastalikning yashirin davri deyiladi. Bu davr 3 soatdan 8 kungacha bo'lishi mumkin. Kasallikning klinik belgilari boshqa ichak infeksiyalariga o'xshash bo'lib, umumiy holsizlik, tana haroratining ko'tarilishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorin sohasida og'riq, ich ketish belgilari bilan kechadi.

Surunkali ich ketishi va qusish organizmning suvsizlanishiga olib kelishi mumkin. Tanadan ko'plab suyuqlik, u bilan birga mineral tuzlar ham chiqib ketadi. Tana quriy boshlaydi, suvsizlanish yurak va miya faoliyati hamda qon aylanishining keskin buzilishiga olib keladi. Shuning uchun yuqoridagi belgilar bezovta qilganda zudlik bilan tibbiyot xodimlariga murojaat qilish lozim. Tibbiyot xodimining tavsiyasiga ko'ra, bemor ambulator yoki statsionar ravishda davolanadi. Harbiy qism va muassasalarda bemor kasallikning ilk klinik belgilari paydo bo'lganda tibbiyot punktiga murojaat etishi va o'z

vaqtida boshqa safdoshlaridan alohidalanishi bilan infeksiyaning shaxsiy tarkib orasida tarqalib ketishining oldi olinadi.

Salmonellyoz kasalligining oldini olish chora-tadbirlarini tashkil etish va amaliyotga joriy qilish tibbiyot xodimlari, veterinariya xizmati, go'sht va sut ishlab chiqarish korxonalari, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar xodimlari bilan birga amalga oshiriladi. Bu ishda asosiy kuch odamlar, hayvonlar va parrandalar orasida yuqumli kasallik manbaini aniqlash va kasallik tarqalishini o'z vaqtida to'xtatishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kasallikka chalinmaslik uchun, avvalambor quyidagi shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim:

- har kuni kechqurun
- uyqudan oldin, ertalab - uyqudan so'ng yuz-qo'lni sovunlab va tishlarni tozalab yuvish;
- hojatdan so'ng va ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish odat tusiga kirishi;
- qaynatilgan suv yoki maxsus idishlarda chiqarilgan suvni ichish;
- cho'milganda og'izdan suv yutmaslik, faqat shaxsiy mochalka va sochiqlardan foydalanish;
- tayyor ovqat va ovqat qoldiqlarini ochiq holatda qoldirmaslik, ishlatilgan idish-tovoqlarni yuviqsiz qoldirmaslik, ularda kasallik mikroblarini tashuvchi pashsha va suvaraklar ko'payishiga yo'l qo'ymaslik;
- axlatni qopqog'i zich yopiladigan idishlarga yig'ish, uni kamida kuniga bir marotaba bo'shatib, dezinfeksiya qilish;
- uxlash xonalari, oshxona va hojatxona derazalaridan pashsha kirmasligi uchun maxsus to'r yoki doka tutish kerak bo'ladi.

Harbiy shaharchalardagi hojatxonalar turarjoy, suv manbai va oshxonalar kamida 25 metr uzoqlikda qurilishi, uning devor va pollari tiriqsiz, eshigi jips yopiladigan bo'lishi kerak. Har kuni tozalab, zararsizlantiruvchi moddalar bilan (*yo'riqnomaga ko'ra*) dezinfeksiya qilish lozim.

Ushbu tavsiyalarga rioya qilsak, nafaqat o'zimizni, balki safdoshlarimiz sog'lig'ini ham himoya qilgan bo'lamiz.

**Tibbiy xizmat podpolkovnigi
M. SHAROPOV,
Qarshi sanitariya-epidemiologiya nazorati bo'limi boshlig'i**

Xalqaro hamkorlik



Germaniya Federativ Respublikasining "SBH WEST GmbH" ta'lim va hunarmandchilik fondi boshqaruvchi direktori Peter Niemann boshchiligidagi delegatsiya "Vatanparvar" tashkilotining poytaxtimizda joylashgan o'quv avtodromida bo'ldi. Germaniyaliklar u yerda yengil va yuk avtomobillari haydovchiligini o'rganayotgan fuqarolarning amaliy mashg'ulotlariga bevosita guvoh bo'ldi.

Germaniyada ishlamoqchi bo'lgan fuqarolar imtihon topshirdi

Ish beruvchi kompaniyalarning rahbarlaridan iborat nemis delegatsiyasi va "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati o'rtasida ishchi uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot chog'ida o'zbekistonlik fuqarolarni avtobus va yuk avtomobillari haydovchiligiga tayyorlab, Germaniyaga ishga yuborilishi bo'yicha olib borilayotgan hamkorlik ishlari muhokama qilindi.

So'ngra tashkilotning avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarini tamomlagan va nemis diyorida vaqtincha ishlash istagida bo'lgan yurtdoshlarimiz delegatsiya vakillari tomonidan imtihon qilindi.

Imtihon jarayonida belgilangan talablarga ko'ra, 40 yoshdan oshmagan va "D" yoki "CE" toifadagi haydovchilik guvohnomalariga ega bo'lgan nomzodlarning nazariy va amaliy bilimlari tekshirildi. Shuningdek, ularning nemis tilini "A1" yoki "B1" darajasida bilishlari muloqot yo'li bilan aniqlandi. Bundan tashqari, nomzodlar sudlanmagan va jismonan sog'lom bo'lishi talab etiladi.

Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan haydovchilar bilan Germaniyada vaqtincha ishlash bo'yicha shartnomalar tuzildi.

Bir necha kun avval Germaniya delegatsiyasi "Vatanparvar" tashkiloti Samarqand

viloyati kengashining o'quv muassasalaridagi turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, moddiy-texnik bazasi va o'quv dasturlari bilan tanishgan edi.

"BC" va "D" toifalaridagi haydovchilarni Yevropa standartlari asosida tayyorlash maqsadida Germaniyaning "SBH WEST GmbH" ta'lim va hunarmandchilik fondi tomonidan O'zbekistonga uch dona simulyator (*avtomobil boshqarishni o'rgatishda foydalaniladigan trenajyor*) topshirilmoqda. Ushbu simulyatorlar "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm, Samarqand va Namangan viloyatlaridagi o'quv muassasalarida o'rnatiladi.

O'zbekiston chempionati

YOZGI BIATLON

sportchilari bellashdi



Toshkent viloyati Chirchiq shahrida sportning yozgi biatlon turi bo'yicha DXX xodimi, marhum Sergey Nichipurenko xotirasiga bag'ishlangan O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan tashkil etilgan ushbu musobaqada respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 72 nafar sportchi 4 ta mashqda bellashdi.

Musobaqada sportchilardan turli masofalarda belgilangan joyga yugurib hamda rollerda harakatlangan holda kelishlari va pnevmatik miltiqdan nishonni mo'ljalga olishlari talab etildi.

Bellashuvda ayollar "3 km - sprint" mashqida hamda "7,5 km - roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonga qarata o'q uzdilar. Erkak sportchilar esa "4 km - sprint" mashqlarida hamda "10 km - roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonni mo'ljalga oldilar. Sportchilar, shuningdek individual poyga bahslarida ham o'zlarini sinab ko'rdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan yozgi biatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

Qizlar o'rtasida:

"3 km - sprint" mashqida:

- 1-o'rin:** Oydina Ikromova (Namangan viloyati);
2-o'rin: Inobat Tojiboyeva (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Dilafro'z Mirozimova (Toshkent viloyati).

"7,5 km - roller-sprint" mashqida:

- 1-o'rin:** Inobat Tojiboyeva (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Odinabonu Mirzatillayeva (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Odina Arapova (Farg'ona viloyati).

"6 km - individual poyga" mashqida:

- 1-o'rin:** Oydina Ikromova (Namangan viloyati);
2-o'rin: Dilafro'z Mirozimova (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Inobat Tojiboyeva (Toshkent viloyati).

"15 000 km - individual poyga" mashqida:

- 1-o'rin:** Inobat Tojiboyeva (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Odinabonu Mirzatillayeva (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Odina Arapova (Farg'ona viloyati).

Erkaklar o'rtasida:

"4 km - sprint" mashqida:

- 1-o'rin:** Suhrob Rajabov (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Ruslan Hojiyev (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Islom Turg'unov (Toshkent shahri).

"10 km - roller-sprint" mashqida:

- 1-o'rin:** Rolan Raimkulov (Toshkent shahri);
2-o'rin: Tursunboy Qosimov (Toshkent shahri);
3-o'rin: Yusuf Abdullayev (Toshkent shahri).

"7 km - individual poyga" mashqida:

- 1-o'rin:** Bekzod Bekov (Toshkent shahri);
2-o'rin: A'zamjon Qutbiddinov (Namangan viloyati);
3-o'rin: Ruslan Hojiyev (Toshkent viloyati).

"12 500 km - individual poyga" mashqida:

- 1-o'rin:** Rolan Raimkulov (Toshkent shahri);
2-o'rin: Dilmurod Abdurahmonov (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Tursunboy Qosimov (Toshkent shahri).

Umumjamoa hisobida:

- 1-o'rin:** Namangan viloyati;
2-o'rin: Toshkent viloyati;
3-o'rin: Toshkent shahri jamoalari.

Musobaqa yakunida g'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Vatanparvarlik - oliy maqsadimiz!

O'ZBEKISTON YOSHLARI

"Shunqorlar" da toblanmoqda



Mamlakatimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining hududiy bosqichi davom etmoqda.

Jumladan, o'yinlarning Toshkent viloyati bosqichida viloyatning tuman va shaharlaridagi umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar va talabalardan tashkil topgan 11 ta jamoa ishtirok etdi.

Do'stona va murosasiz kechgan bahslarda Qibray tumani yoshlaridan iborat "Amir Temur" jamoasining qo'li baland kelib, 1-o'rinni egalladi. Ushbu jamoa endi 26-28-iyun kunlari o'tkaziladigan o'yinlarning respublika bosqichida Toshkent viloyati sha'nini himoya qiladi. Ikkinchi o'rin Angren shahri, 3-o'rin esa Chirchiq shahrining jamoalariga nasib etdi.

Shuningdek, Surxondaryoda tashkil etilgan viloyat bosqichida Muzrabot tumani, Namanganda To'raqo'rg'on tumani yoshlari g'oliblikni qo'lga kiritib, final bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Harbiy-vatanparvarlik



Olmaliqda talabalar BELLASHDI

Toshkent viloyati Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismda talabalar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik ruhini oshirish maqsadida sport tadbiri tashkil etildi. Ushbu tadbirda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining Toshkent shahri va viloyatidagi filiallari talabalaridan iborat sakkizta jamoa ishtirok etdi. Ular besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan "Harbiy-vatanparvarlik o'yinlari"da o'zaro bellashdi.



Harbiy qism dala-o'quv maydonida tashkil etilgan bellashuvning tantanali ochilish marosimida Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy orkestr va faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari yoshlarda ulkan taassurot qoldirdi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning qo'ljagi elementlari bilan chiqishlari talabalarning ruhini ko'tardi.

Musobaqa doirasida talabalar turnikda tortilish, ruhiy barqarorlik yo'lagidan o'tish, qurolni qismlarga ajratish va yig'ish, o'q otish va pichoq uloqtirish kabi beshta shart bo'yicha o'z mahoratini namoyish etdi. Harbiy qism ofitserlaridan iborat hakamlar hay'ati jamoalarning ishtirokini adolatli baholash bilan bir qatorda, ularga soha bo'yicha orttirgan bilim va ko'nikmalari bilan ham o'rtoqlashdi.

Murosasiz va shiddatli kechgan bellashuvlar yakunida faxrli 3-o'rinni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, 2-o'rinni Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali egallagan bo'lsa, "MISIS" Milliy tadqiqot universiteti Olmaliq shahri filiali jamoasi bellashuvning mutlaq g'olibi deb topildi. G'oliblarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Shu tariqa harbiy-vatanparvarlik musobaqasi talabalarning jismoniy va ma'naviy yetukligini yanada oshirish, vatanparvarlik hissini kuchaytirishda muhim qadam bo'ldi.

Shahnoza SULTONOVA
TOQQQ matbuot xizmati

Tashrif

O'QUVCHILAR akademiyada



Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik, milliy g'urur va ezgu qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ezgu sa'y-harakatlar yoshlarimizning Vatanga muhabbatini yanada mustahkamlab, yurt tinchligini asrab-avaylashga va uning ravnaqiga hissa qo'shishga bo'lgan daxldorlik tuyg'usini oshirmoqda.

Ana shu maqsadda Surxondaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tasarrufidagi "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'quvchilari uchun Qurolli Kuchlar akademiyasiga sayohat uyushtirildi. Tashrif chog'ida litsey o'quvchilari akademiya tarixi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Akademiyaning o'quv-tarbiya jarayoni, zamonaviy infratuzilmasi, kursantlarga yaratilgan qulay sharoitlar esa yoshlarga o'zlarining orzularidagi harbiy kasb sari qo'yiladigan ilk qadamlarini his qilish imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, tashrif doirasida akademiyaning Chegara qo'shinlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti boshlig'i, dotsent polkovnik Xusan Xaitov ishtirokida yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi. Suhbatda akademiya qabul qilish tartibi, rahbariy hujjatlar talablari, nomzodlar uchun qo'yiladigan shartlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Shu orqali yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldi.

Tashrif yakunida Qurolli Kuchlar akademiyasi hamda "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'rtasida har tomonlama samarali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalasi alohida e'tirof etildi. Albatta, bu yoshlarimizning ma'naviy kamoloti va Vatan himoyasiga qo'shadigan hissasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi ezgu tashabbuslar yoshlarimizning qalbida Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat tuyg'usini mustahkamlaydi va ularni mard hamda jasur Vatan himoyachisi sifatida tarbiyalashga hissa qo'shadi.

Podpolkovnik I. XALMIRZAYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti

Sayyor qabul

Inson qadri uchun

Guliston harbiy prokuraturasi tomonidan viloyat kuch tuzilmalari hamkorligida Toshkent viloyatining Bekobod shahrida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Dastlab ochiq muloqot tashkil etilib, harbiylar va ularning oila a'zolari uchun mavjud imkoniyat va imtiyozlar haqida hamda sayyor qabulning maqsadi va ahamiyati xususida so'z yuritildi.

So'ngra hokimlik vakillari va tumandagi tegishli soha mutaxassisleri ishtirokida harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari hamda yoshlar tinglandi. Jarayonda murojaatlarning ko'pchiligi yuzasidan huquqiy tushuntirish berilib, ko'rib chiqish muddat talab etadiganlari nazoratga olindi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va yoshlar, shu jumladan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlar uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Adliya podpolkovnigi
Farrux JUMAYEV,
Guliston harbiy prokurori

Huquqiy targ'ibot

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi boshqaruv apparatida "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzusida huquqiy targ'ibot-profilaktika tadbiri o'tkazildi.

Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda qo'mondonlik va tizimdagi harbiy qismlar mas'ullari ishtirok etdi. Jarayonda korrupsiya tushunchasi, uning ayanchli oqibatlari, javobgarlik va jazo choralarining huquqiy asoslari haqida so'z yuritildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish korrupsiya hisoblanadi.

Korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilgani uchun qonunchilikda

javobgarlik nazarda tutilgan qilmish esa korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deb ta'riflangan.

Qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari sanaladi.

Muloqotda, shuningdek yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati yetkazildi.

Adliya podpolkovnigi
Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Sport

Kurash musobaqasi



Jizzax harbiy prokuraturasi va viloyat kuch tuzilmalari hamkorligida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, harbiy qismlarning birida o'tkazilayotgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini ishtirokchilari o'rtasida milliy kurash sport turi bo'yicha "Harbiy prokuror sovrini" uchun musobaqa o'tkazildi.

Murosasiz kechgan bellashuvda 4 ta vazn bo'yicha g'oliblar aniqlanib, ular medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Adliya mayori Shuhrat XODJIYEV,
Jizzax harbiy prokurorining katta yordamchisi

Qahramonlar nomi barhayot



Elomonlar borki, Vatan, el omon!



Surxondaryoning tog'li hududlarida xalqaro terrorchilarga qarshi janglarda qahramonlarcha halok bo'lgan Elomon Otajonov xotirasiga.

Bulut soya soldi Tong kulgisiga,
Surxon tog'lariga pisib kirdi yov.
Quyoshning qudratin sezmaskan gohi
Gullarning bargida adashgan qirov.

Oftob chekinmadi zulmat qarshida
Muqaddas ostona toptalmadi, yo'q.
Yovuzlik qa'ridan harchand otilsin,
Ozodlikni aslo yiqitolmas o'q!

...Dushman yer tishladi, tutdek to'kilib,
Shum o'qlar yomg'iri qasd qildi jonga.
Tog'larning bag'rida tog'day yuksalib,
Mardlar qalqon bo'ldi O'zbekistonga!

Ona yurt sevgisi qo'rquvdan ustun,
Zimmada burch bordir, ortda xalq, Vatan.
Tog'lardan oldingmi, Elomon, kuching?
So'nggi so'zlarida burch, nomus va sha'n...

Onang bejiz "Alpim" deya suymagan,
G'anim yo'llarini to'sding mardona.
Deding: – Nomus erur men ichgan qasam –
Mendek o'g'lonlar ko'p, Vatan yagona!

Mardlar o'limida mangu hayot bor,
Avval Vatan deding, avval Erk deding.
Kim qurol ko'tarib kirsam yurtimga,
Qalxim darvozadir, yo'ling "Berk" deding!

To'g'ri, ko'zyosh bilan asralmas Vatan,
Jon bilan, shon bilan himoya kerak.
Elomonlar hur yurt qalqoni bo'lsa,
Mangu urib turar, Erk degan yurak!

Bu ulug' makonni kamolga yo'llar,
Yurtga qalqon bo'lib tikilgan har jon.
Vatan sevgisini sharaflab turgan
Muqaddas vijdondir, muqaddas iymon!

Botirlar azmida jasorat, mardlik,
Tog'lar tog'dek alpga aytdilar vido.
Alvon qizg'aldoqlar – erur hamdardlik,
Ona Yer tilida shom-u tong duo.

Toki, bu dunyoda jaholat mavjud,
Toki, qalbg'a solur vahshat tahdidlar.
"Vatanni iymondek asrangiz!" – deydi
Vatan deb jonfido qilgan shahidlar.

Hamon dunyo notinch, xavf-xatar bisyor,
Goh asal deb tutar g'animlar talxni.
Erkiga tajovuz qilsa, yanchilar
Erk uchun jon olib, jon bergan xalqni.

Mardlar bayroq kabi dillarda mudom,
Necha evrilmasin davr va zamon.
Toki, Elomunday o'g'lonlari bor,
El ham omon erur, Vatan ham omon!



Minhojiddin MIRZO,
Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5976
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 050 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya